

S. B. Eshburiyev

---

# **TUXUM YO'NALISHDAGI TOVUQLARDA KALSIY VA FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHINING DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI**

---

MONOGRAFIYA



SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

*S.B. Eshburiyev*

**TUXUM YO'NALISHDAGI TOVUQLarda KALSIY  
VA FOSFOR ALMASHINUvi BUZILISHINING  
DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI**

*MONOGRAFIYA*

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
Nashr matbaa markazi, 2024

**UO'K: (021) 619:636.5:591.13:577.16:616.002:616-084**

**KBK: 48.716.12**

**S.B.Eshburiyev. Tuxum yo‘nalishdagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishining diagnostikasi va profilaktikasi. Monografiya. – Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2024. 104 bet.**

Monografiya tuxum yo‘nalishdagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishining diagnostikasi va profilaktikasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda tovuqlar organizmida mineral moddalarning biologik ahamiyati, tovuqlarni saqlash va oziqlantirish qoidalari, mineral modda almashinuvi buzilishlarining tarqalishi, iqtisodiy zarari va etiologiyasi, tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining simptom va sindromlari va ushbu patologiyani guruhli profilaktika qilishning zamonaviy usullari batafsil bayon etilgan.

Ushbu monografiya veterinariya meditsinasи va zootexniya yo‘nalishlaridagi bakalavr, magistrant, doktorant, mustaqil tadqiqotchilar, veterinariya mutaxassislari, oliv ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.

Monografiya Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashi tomonidan (14 noyabr 3-sonli bayonnomasi) chop etishga tavsiya qilindi.

**Taqrizchilar:**

**R.B.Davlatov** – Samarqand davlat veterinariya meditsinasи, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi fakulteti dekani, v.f.d., professor

**N.I.Navruzov** – Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Mikrobiologiya labaratoriysi muduri veterinariya fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

**ISBN: 978-9910-8860-6-5**

## MUNDAREJA

KIRISH.....	4
TOVUQLARNI PARVARISH QILISHDA GIGIENA VA SANITARIYA TADBIRLARI .....	6
TOVUQLARNI TUXUMGA KIRISH ARAFASIDA VA TUXUMGA KIRGAN DAVRIDA PARVARISHLASH.....	8
OZIQLANTIRISH VA TUXUM VAZNİ.....	16
TUXUM QO'YISH UYALARI VA TUXUM TERISH.....	17
TOVUQLARNI SAQLASH BO'YICHA UMUMIY KO'RSATMALAR.	18
TOVUQLAR ORGANIZMIDA MINERALLAR ALMASHINUVINING BIOLOGIK AHAMIYATI.....	19
TOXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLarda KALSIY VA FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHLARINING SIMPTOMLARI, SINDROMLARI VA PATOMORFOLOGIK O'ZGARISHLARI.....	34
TOVUQLarda KALSIY VA FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHLARIDA TUXUMDA KUZATILADIGAN MORFOGİK O'ZGARISHLAR.....	51
TOXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLarda KALSIY VA FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHLARINING DIAGNOSTIKASI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI.....	57
TOVUQLarda KALSIY VA FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHLARINI OLDINI OLISH.....	63
XULOSALAR.....	80
AMALIYOTGA TAVSIYALAR.....	82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	83
ILLOVALAR.....	97

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat xavfsizligini barqaror ta'minlashda parrandachilikni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Parrandachilik chorvachilikning tez yetiluvchan sohalardan biri bo'lib, aholini parhez go'shti va tuxum mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini beradi.

Parrandachilik chorvachilikning muhim tarmog'i bo'lib, zotdor parrandalar broyler jujalarni olish, parranda go'shti, undan tayyorlanadigan parhez go'sht mahsulotlari, tuxum, pat va par ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Shu sababli parrandachilik xo'jaliklari sonini ko'paytirish, ulardan rastional foydalanish, tovuqlarning tuxum mahsulorligini oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Uy sharoitida (tomarqada) boqishga moslashtirilgan tovuq zotlari, ularni parvarish qilish, zarur bo'lgan uskunalar, suv ichish, oziqlantirish va tuxum vazni, ozuqa qo'shimchalari, xona harorati, nisbiy namligi, yoritilishi, havo almashinuvi meyorlari, qafasda parvarishlash, bosh soni zichligi va tuxum terish to'g'risidagi ma'lumotlar dolzarb hisoblanadi. Mazkur muammoning samarali yechimini ishlab chiqish aholining tuxum va parhez parranda go'shtiga bo'lgan talabini qondirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Respublikamizda parrandachilik sohasida amalga oshirilayotgan tub islohatlar va chuqur tarkibiy o'zgarishlar natijasida yildan-yilga parrandalar bosh soni ko'payib, mahsulorligi oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Veterinariya to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrdagi PQ24/60-son «2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018 yil 13 noyabrdagi PQ – 4015-son «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar», 2019 yil 28 martdagi PQ-4254-son «O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorlari, «Veterinariya va chorvachilik sohasida Davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 2019 yil 28 martdagi PF-5696-sonli Farmoni hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tavsiyanoma muayyan darajada xizmat qiladi.

Tuxum yo'nalishidagi parrandalarning hozirgi kunda eng zamonaviy yuqori mahsuldor krosslaridan "Lomann" (Germaniya), "Xayeks", "Bovans", "Dekalb" (Gollandiya), "Xaylayn" (AQSh) va "Rodeau", "Sheyver" (Rossiya) zotlari ma'lum. Tovuqlar bir yilda uy sharoitida 300 donagacha, sanoat parrandachiligidida 350 donagacha tuxum berishi mumkin. Bir dona tovuq tuxumining og'irligi o'rtacha 49-65 gramminga boradi.

O'zbekiston Respublikasida tuxum olish uchun ko'p boqiladigan tovuq zotlari




Lomann tradision krossi



Lomann Broun – klassik krossi



Lomann LSL - klassik krossi



Lomann silver krossi

1-jadval

Tovuq zotlari	Tuxumga kiradi kun	Bir yilda tuxum soni	Tuxumni og'irligi	Oziqa miqdori 1-kunda (gr)	Tirik vazni Tuxum qilish davrida(kg)
Lomann tradision krossi	140-150	330-335	64,0-65,0	115-125	1,9-2,1
Lomann Broun – klassik krossi	140-150	340-350	63,5-64,5	110-112	1,9-2,1
Lomann LSL - klassik krossi	140-150	345-355	62,5-63,5	105-115	1,7-1,9
Lomann silver krossi	140-150	330-340	62,0-63,0	115-125	2,1-2,3

## TOVUQLARNI PARVARISH QILISHDA GIGIYENA VA SANITARIYA TADBIRLARI

Parrandachilikdagi asosiy maqsad kasallikni katakka yaqinlashtirmaslik va sog'lom tovuq galalarini yetishtirishdir. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Avvalo, tovuqxona qilinadigan joy boshqa parrandachilik fabrikalari joylashgan joydan va katta trassalardan iloji boricha uzoq bo'lishiga ahamiyat qaratish kerak.

- Tovuqxonalar yovvoyi hayvonlar va yirtqich qushlar kira olmaydigan tarzda rejalashtirilishi va kataklar orasida yetarlicha masofa qoldirilishi kerak. Fermaning atrofi yovvoyi hayvonlar va begonalarning kirmasligi uchun maxsus o'ralsihi, kirib-chiqish nazoratga olinishi kerak.

- Kataklar oson yuvib tozalashga mo'ljallangan materiallardan qilinishi, ichiga joylashtiriladigan uskunalar ham shunga mos tarzda tanlanishi kerak. *Kataklarni tozalash va dezinfeksiya qilishga qisqacha to'xtalib o'tsak:*

- Katakdagi tovuqlar tashqariga chiqarilgach, tozalashni to'shamani olishdan boshlash kerak. To'shamma atrofga sochilib ketmasdan iloji boricha katakdan uzoqroq joyga tashlanishi kerak. Katak ichidagi

uskunalar va jihozlar ham tashqariga chiqarilib yuvilgach, dezinfeksiya qilinadi va quyoshda quritiladi.

- Katak va jihozlar kamchiliklari va nosozlari tozalash asnosida bartaraf qilinishi kerak.

- Katak poroshokli, dezinfeksiya vositasi qo'shilgan suvda yaxshilab yuvilgach, ko'p tarkibli dezinfeksiya vositasi bilan dezinfeksiya qilinadi. Qurigunicha esa ohaklanadi.

- Avvaldan tozalangan va dezinfeksiya qilingan jihozlar ham ichkariga olib kiriladi, ishonchli joydan olingen toza qirindi (apilka) to'shalgandan keyin eshik va derazalar mahkamlab yopilib, tutun (burqsitish) yo'lli bilan dezinfeksiya qilinishi va kataklar shu tarqa yopiq holda muhofaza qilinishi kerak. Katakning havosi tovuqlar kelishidan oldin yaxshilab almashtirilishi kerak.

- Tovuqlar kelishidan kamida 24 soat avval katakdagi barcha tuyyorgarlik va issiqlik holati to'g'rilib qo'yilishi lozim.

- Katakka kirish joyiga dezinfeksiya vositalari va ohak qo'yilishi, qarovchilar ularni bosmasdan kirishlari lozim.

- Iloji boricha har katakning qarovchisi alohida bo'lishi, kiyishlari uchun maxsus oyoq kiyim va ust kiyim berilishi, tovuqxonada kiyib yuradigan kiyimlari bilan tashqarida yurmasligi kerak.

- Kataklarga begonalar va ko'rgani keladiganlarning kirishiga yo'l qo'yimaslik, agar veterinar doktor, qishloq xo'jaligi muhandisi kabi texnik xodimlar kirishiga to'g'ri kelsa, ular ham yuqoridagi gigiena qoidalariiga, veterinariya-sanitariya talablariga amal qilishi lozim.

- O'lgan tovuqlar kataklardan uzoqda kovlangan chuqurlarga ko'milishi, ustiga so'nmagan ohak quyilishi, eng yaxshisi yoqib bartaraf qilinishi kerak.

- Biror kasallikka shubha paydo bo'lganda darhol o'sha hududdagi veterinar doktorga murojaat qilinishi, o'zbilarmonlarcha dori bermaslik kerak.

- Yemlar ishonchli yem korxonalaridan olinishi, bo'shagan qoplar va eski tuxum qo'yiladigan fleykalar qayta ishlatalmasligi lozim.

- Yangi olingen jihozlar dezinfeksiya qilinmasdan turib katakka olib kirilmasligi kerak.

- Kataklarga me'yordan ortiqcha tovuq qo'yilmasligi kerak. Aks holda pati yulinishi va boshqa stressli muammolar yuzaga chiqishi mumkin.

- Tovuqlarga beriladigan suv toza, rangsiz, hidsiz, cho'kindisiz, zararli modda va mikroblardan tozalangan bo'lishi kerak. Suvdag'i bakteriyalar va kimyoviy kirlanish, ba'zi moddalarning ortiqchaligi o'sishda sekinlashish, vaznda yo'qotish, unumadorlikning pasayishi, ich ketish va o'lim kabi holatlarga olib keladi. Shu sababli fabrikada ishlatiladigan suv tez-tez, hech bo'limganda 6 oyda bir marotaba bakterial va kimyoviy moddalarga tekshirtirilishi kerak.

- Katakdagi suvdonlar kun ora yuvilishi, omborlar 6 oyda bir marotaba tozalanib, dezinfeksiya qilinishi kerak.

- Katakarda muntazam sichqon-kalamushlar va boshqa zararkunadalarga qarshi kurashish kerak.

- Parrandachilikda kasalliklarga qarshi kurashishning boshqa bir yo'li emlashdir. Emlash dasturi ishlab chiqilayotganda hududdagi veterinar doktor bilan maslahatlashish va ushbu dasturga qat'iy amal qilish kerak.

- Emlash orqali kasalliklarning oldini olishga qaratilgan natija ayrim omillarga bog'liq bo'ladi. Sog'lom tovuqlarni kasalliklardan himoyalash maqsadida muayyan davrda emlash lozim. Vaksinalar issiq harorat va quyosh nuridan himoyalanishi va maxsus muzlatkichlarda saqlanishi kerak. Muddati o'tgan emlamalardan foydalanmaslik, har bir tovuqqa o'z me'yordagi dozada emlama yuborilishiga ahamiyat qaratish zarur. Aksariyat emlamalar kuchsizlantirilgan kasallik omillaridan tarkib topgani sababli emlash ishlari tugagach, barcha emlama idishlari yo'q qilinishi lozim. Emlama ichimlik suviga qo'shib berilsa, suv tarkibida xlor va dezinfeksiya moddalari bo'lmasligi kerak.

## **TOVUQLARNI TUXUMGA KIRISH ARAFASIDA VA TUXUMGA KIRGAN DAVRIDA PARVARISHLASH**

Tuxumga kirish arafasidagi tovuqlar 16-18 haftalar orasida parvarishlash kataklaridan tuxumlash kataklari yoki qafaslariga o'tkazilishi kerak. Joylarini almashtirish qorong'u sharoitda, salqin paytda, tovuqlarda stress paydo qilmasdan amalga oshirilishi kerak. Stresslar ta'siriga tushmasliklari uchun ko'chirishdan bir muddat oldin va keyin vitamin berilishi kerak. Birinchi haftadan boshlab tuxumlash davri tugagunga qadar mos o'lcham va miqdorda ozuqasiga qo'shib granit toshi berilishi kerak. Granit berish tuxumlash mavsumida emiste'molini 10-15 foizga kamaytiradi.

2-jadval

Yoshi va ko'rsatkichlar	6-18 hafta		18 hafta	
	Qafasda parvarishlash	Erda parva-rishlash	Qafasda parva-rishlash	Erda parva-rishlash
Maydon oralig'i	280 sm <sup>2</sup>	10 jo'ja/m <sup>2</sup>	400 sm <sup>2</sup>	6 tovuq/m <sup>2</sup>
Oxur oralig'i	5 sm	5 sm	5 sm	5 sm
Suvdon oralig'i	2,5 sm	2,5 sm	2,5 sm	2,5 sm

Tuxum berishga ta'sir qiluvchi omillar: qulay muhit (issiqlik, namlik, havo almashtirish), kerakli jihozlar (oxur va suvdonlar), yoritish molamalari kabi. Parvarishlash va rivojlanish davrida maydonlarga bo'lgan talablar quyidagi 2-jadvalda berilgan.

Yoritish muddati va quvvatining tovuqlar tuxum berish unumдорлигি, түзум vazni, jinsiy balog'at yoshi, tovuq vaznining ortishi, embrion rivojlanishi, xo'rozlarda urug'lantirish quvvati va sperma sifatiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Yoritish muddatining uzayishi jo'janing erta jinsiy balog'atiga sabab bo'ladi. Shuning uchun qish chiqishiga yaqin yoritish tizimini sekin-asta kamaytirib borish kerak. Bahor chiqishida kamaytirish shart emas. Namuna uchun yoritish dasturi quyidagi 3-jadvalda berilgan.

3-jadval

Yoshi	Kunlik yorug'lik soati	Quvvati, lyuk
1-2-kunlik	20-23	20-40
3-4-kunlik	20	20-30
5-6-kunlik	19	20-30
7-14-kunlik	16-17	10-20
15-21-kunlik	14-15	10-20
22-28-kunlik	13	10-20
29-35-kunlik	12	5-10
36-42-kunlik	11	5-10
43-49-kunlik	10	5-10
50-98-kunlik	9	5-10
99-105-kunlik	9-16	20-30

Tovuqxona mikroiqlim meyorlari: havo harorati 18-20<sup>0</sup> C issiqlikni, nisbiy namlik 60-70 foizni, yil mavsumlari bo'ycha havo almashinushi tovuq davrlarda 0,8-1,0 m<sup>3</sup>/kg.ni va issiq davrlarda 5 m<sup>3</sup>/kg.ni tashkil etishi kerak. Xona havosida ammiak, vodorod sulfide, karbonat

angidirid, azotli oksidlarning meyordan oshib ketishi, kislород miqdorning kamayib ketishi kimyoviy omillarga kiradi. Bu omillar ham parranda mahsuldorligiga salbiy ta'sir qiladi.

Sifatli oziqalardan tayyorlanib, to'yimligi meyyorlar bo'ycha muvozanatlashtirilgan ozuqalardan foydalanilmasdan, tovuqlarning yuqori mahsuldorligiga va yaxshi iqtisodiy yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

Tovuqlar rasionida energiyaning asosiy manbai bo'lib donli ozuqalar (makkajo'xori, bug'doy, oqjo'xori, suli), yog'li ozuqalar, o'simlik yog'lari va boshqalar xizmat qiladi. Protein manbai sifatida moy ishlab chiqarishning sifatli chiqindilardan (soya, kungabooqar shroti), go'sht suyak va go'sht-pat unlaridan foydalanilgan maqlul. Ko'pinch baliq unining "qo'l bola" sifatsiz bo'lish xafi tovuqlarga o'simlik oqsili xomashyosini berishni taqazo qiladi.



Mineral moddalarga bo'lgan talabini qondirish maqsadida chig'anoq, so'ndirilgan oxak berish tavsiya etiladi. 65-70% donli oziqalar, 15-20% paxta shroti, 8-12% hayvonot oziqalari, 1-2% yog'i olingan quruq sut, 7% gacha achitqilar, 2-3% o't uni hayvonot oziqalari qon, ichki a'zolar qaynatilib sovutib, maydalanim beriladi.

Oziqalardagi to'yimli va biologik faol moddalar parrandalar organizmiga cnergiya manbai va qurilish materiallari sifatida hamda moddalar almashinuvni jarayonlarining me'yorida kechishi uchun zarur bo'lib, parrandalarning yuqumsiz kasalliklari ko'pincha oziqlantirish va saqlash qoidalarining buzilishi oqibatida kelib chiqadi.

Aminokislotalarning yetishmasligi tovuqlarda ishtahaning pasayishi, jo‘jalarning o‘sish va rivojlanishdan qolishi, ona tovuqlarda esa tuxum berishning kamayishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham, tovuqlarni oziqlantirishda metionin, lizin, triptofan, arginin kabi aminokislotalarning yetarli darajada bo‘lishi asosiy ahamiyatga ega.

#### 4-jadval.

#### Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarni oziqlantirish me’yorlari (100 g ozuqada) %

Oziqlalar moddalar	Tovuqlarni yoshi (hafta), mahsuldarligiga ko‘ra	Tovuqlarni yoshi (hafta), mahsuldarligiga ko‘ra			
		12-21	22-43	44-60	61-73
Almashinuv energiyasi, KDJ	1048	1130-1150	110-1130	1090-1500	
Xom protein, g	13,5	17-17,5	15-16	14-15	
Makkajo‘xori	42	36	37	38	
Bug‘doy	16	18	16	16	
Bug‘doy kepagi	-	-	8	8	
Soya kunjarasi	10,5	5	4	-	
Kunjut yoki kungaboqar kunjarasi	20	22	18	16	
Paxta kunjarasi	3	5	5	8	
O’simlik yog‘i	15	2	1,5	1,5	
Trikalsiy fosfat	-	1	1	1	
So‘ndirilgan ohak	1,5	10	10	10	
Osh tuzi	0,3	0,3	0,3	0,3	
Soda	0,2	0,2	0,2	0,2	
Metionin	0,15	0,15	0,15	0,15	
Lizin	0,10	0,10	0,10	0,10	
Premiks	0,20	0,20	0,20	0,20	
Vitaminlar		-	-	-	

Tuxum beradigan tovuqlar uchun omixta yemlarda aminokislotalardan metionin 0,30%, lizin - 0,70, triptofan - 0,16 hamda arginin 0,85% bo‘lishi kerak.

Tovuqlar organizmining energiyaga bo‘lgan ehtiyoji asosan uglevodlar va yog‘lar hisobidan ta’minlanadi. Tovuqlar ratsionining 65-80 foysi donli oziqlardan iborat bo‘lib, ularning tarkibini kraxmal va kletchatka tashkil etadi.

**Kraxmal** - donlarning un qismining asosini tashkil etadi, ya’ni donlarning 70-84 foizi kraxmaldan iborat bo‘ladi.

**Kletchatka** - asosan donlarning po'stloq qismini tashkil etadi. Kletchatka oziqalarga kerakli hajm beradi va ichaklar faoliyati hamda shira ajralishini yaxshilaydi. Lekin, kletchatkaning hazm bo'lishi qiyin bo'lganligi uchun ham, uning oziqalar tarkibidagi miqdori me'yordan ko'p bo'lmasligi kerak.

Parrandalarni oziqlantirishda ratsionning mineral qismi (makro- va mikroelementlar) asosiy ahamiyatga ega. Ularning mineral moddalarga bo'lgan ehtiyojlarini oziqalar tarkibidagi makroelementlar (kalsiy, fosfor, natriy) va mikroelementlar (marganets, rux, mis, temir, kobalt) to'liq qondira olmaydi. Shuning uchun ham ular tovuqlarga qo'shimcha ravishda berilishi zarur.

**Kalsiy** - suyak to'qimasining asosiy qismini tashkil etadi. Organizm tarkibidagi 99% kalsiy suyaklarda to'plangan bo'lsa, faqatgina 1% kalsiy boshqa to'qimalarda uchraydi. Oziqalardagi kalsiyning yetishmaydigan qismi tovuqlarga bo'r, rakushka, suyak uni, tuxum po'chog'i kabilarni qo'shimcha ravishda berish bilan qoplanadi. Ratsionda kalsiy yetishmasligi yosh jo'jalarning o'sishdan qolishi, ona tovuqlarda tuxum berishning kamayishi, tuxum po'chog'inинг yupqalanishiga sabab bo'ladi.

Ratsion tarkibida kalsiy elementining ortiqcha bo'lishi ham salbiy oqibatlarga olib keladi. ya'ni yog'larning hazmlanishi yomonlashadi, fosfor va mikroelementlarning (marganes, temir, yod) almashinuvi buziladi.

**Fosfor** - parrandalar organizmida moddalar va energiya almashinuvi jarayonlarining me'yorda kechishida asosiy ahamiyatga ega. Organizmda uning 80 foyizi suyaklarda, 20 foyizi esa to'qimalar va biologik suyuqliklar tarkibida bo'ladi. Fosforning yetishmasligi kalsiy yetishmovchiligidagi nisbatan kam uchraydigan holatdir. Chunki fosfor donlar, kunjara, kepak va hayvonot olamidan olingan oziqalar tarkibida yetarlicha darajada bo'ladi.

Ratsion tarkibida fosforning ortiqcha darajada bo'lishi, kalsiyning so'riliishiga to'sqinlik qiladi va uning yetishmovchiligini kuchaytiradi.

**Natriy** - donli oziqalar tarkibida juda kam miqdorda bo'lib, parrandalarning natriyga bo'lgan ehtiyojlari hayvonot olamidan olinadigan oziqalar (go'sht-suyak uni, baliq uni) va osh tuzi hisobiga qondiriladi. Ratsionda natriyning yetishmasligi oqibatida parrandalarning ishtahasi pasayadi, yosh jo'jalar o'sishdan qoladi, katta

yoshdag'i tovuqlarning o'limi ko'payadi, bir-birini cho'qiydi (kamibalizm), tuxum berishi kamayadi.

Natriyning ortiqcha bo'lishi esa tovuqlarning zaharlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham osh tuzi ratsionga 0,5% gacha qo'shilishi mumkin. Tovuqlarda osh tuzidan zaharlanish qonli ich ketishi, chanqoqning kuchayishi, tuxumning po'choqsiz bo'lishi kabi belgilar bilan kechadi.

**Mikroelementlar** - (marganes, rux, mis, temir, kobalt, yod) parrandalar organizmida moddalar va energiya almashinuvida katta shamiyatga ega bo'lib, ratsionga ularning tuzlari qo'shiladi. Mikroelementlarning yetishmasligi oqibatida yosh jo'jalar yomon o'sadi, suyaklar qiyshayib qoladi, oqsash kuzatiladi. Ona tovuqlarda par va patlар sinuvchan, dag'al bo'lib qoladi, tushib ketadi, tuxumning sifati va miqdori kamayadi.

Parrandalarni to'la qimmatli oziqlantirish ularni biologik faol moddalar (aminokislotalar, vitaminlar va fermentlar) bilan ta'minlanishiga ko'p jihatdan bog'liq. Biologik faol moddalar parrandalar organizmining tashqi muhit ta'sirotlariga chidamliligini oshiradi, oziqlardan ratsional foydalanish va mahsuldorlikni oshirish imkonini beradi.

Vitaminlarning yetishmovchiligi moddalar almashinuvida chuqur o'zgarishlarlarga: o'sishdan qolish, mahsuldorlikning pasayishi hamda parrandalar orasida ko'plab o'limga sabab bo'ladi. Parrandalarning kasalliliklarga nisbatan chidamliligi pasayadi.

Parrandalarning yoshi va fiziologik holatiga qarab, ularning vitaminlarga bo'lgan ehtiyoji turlicha bo'ladi. Masalan, tuxum beradigan tovuqlar uchun 1 tonna oziqada A vitamini 10 mln XB, D<sub>3</sub> - 2 mln XB, C - 50 g, E - 10 g, B<sub>1</sub> - 2 g, B<sub>2</sub> - 5 g, B<sub>3</sub> - 20 g, B<sub>4</sub> (xolin-xlorid) -500 g, B<sub>12</sub> - 0,025 g bo'lishi kerak.

Tovuqlar uchun ratsionlar tarkibi donli oziqlar yormasi, soya kunjarasi, paxta shroti, masxar shroti, o't uni (vitamin uni), oziqabop yog'lar (o'simlik moylari va hayvonlar yog'i), oziqabop achitqilar, mineral moddalar (bo'r, saprofel, suyak uni, go'sht - suyak uni, qon uni, baliq uni) va vitaminlardan iborat bo'ladi.

**Makka doni** - parrandalar uchun to'yimli oziqa hisoblanib, tarkibida 4 - 6% yog'lar, 8 - 10% protein, aminokislotalar, sariq makka

donida 10 - 20 mkg/kg karotin bo‘ladi. Shuning uchun ratsionning 30 - 40 foizini makka doni tashkil etishi lozim.

**Bug‘doy doni** - kaloriyasi bo‘yicha makka donidan yuqori va ko‘p miqdorda (12 - 13,7%) protein saqlaydi. Parrandalarning yoshi va fiziologik holatini hisobga olgan holda omixta yemlarga 15 - 35% gacha qo‘shilishi mumkin.

**Texnik chiqindilar** - (kunjara va shrotlar) donlardan yog‘ olish paytida hosil bo‘ladigan mahsulotlar bo‘lib, tovuqlar uchun to‘yimli oziqalar hisoblanadi.

**Shrotlar** - yog‘-moy ekstraksiyalash zavodlarida donlardagi moylarni benzin, dixloretan kabi erituvchilar yordamida olishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar bo‘lib, tarkibida 7% gacha yog‘lar, 37 - 40% gacha protein bo‘ladi.

**Kungaboqar** kunjarasi va shrotidan yosh parrandalar ratsioniga 5 - 7%, katta yoshdagи tovuqlar ratsioniga 15 - 17% gacha qo‘shilishi mumkin.

**Soya** kunjarasi va shrotidan 12-20% gacha qo‘shilishi mumkin. Bu boshqa kunjara va shrotlarga nisbatan to‘yimligining yuqoriligi va tarkibida lizin, arginin aminokislotalarining ko‘pligi bilan ajralib turadi.

**Paxta** shroti tarkibida 43% protein saqlaydi, lekin sistin, metionin aminokislotalarining kamligi bilan tavsiflanadi. Paxta shroti tarkibida gossipol zaharli moddasi bo‘lib, uning miqdori 0,02% dan oshmasligi kerak. Paxta shrotidan parrandalar ratsioniga 4% gacha qo‘shish mumkin, uning tarkibidagi gossipol qizdirish yo‘li bilan zararsizlantiriladi.

**Hayvonot olamidan olinadigan oziqalar:** go‘sht - suyak uni, yog‘sizlantirilgan quritgan sut, baliq uni, baliq qiymasi, parrandalar uchun protein, aminokislotalar va mineral moddalarga boy bo‘lgan to‘la qimmatli oziqalar hisoblanadi.

**Baliq uni** tarkibida 52 - 59 foizgacha protein va shuningdek, lizin, metionin, A, B<sub>2</sub>, B<sub>3</sub>, B<sub>12</sub> vitaminlari, xolin, kalsiy, fosfor, yod kabi moddalar bo‘lib, uzoq muddat saqlanganda oksidlanishi natijasida buzilishi va oziqaviy qimmati pasayishi mumkin. Baliq unidan parrandalar ratsioniga 3 - 7% gacha qo‘shilishi tavsiya etiladi.

**Parlardan tayyorlangan un** - par va patlarni maxsus qozonlarda gidrolizlash yo‘li bilan olinib, tarkibida oltingugurt saqlovchi aminokislotalar ko‘p bo‘ladi.

**Go'sht - par uni** - o'lgan tovuqlarni butunlay maydalash yo'li bilan tayyorlanib, 63% gacha protein saqlaydi. Ratsionga 3 - 7% gacha qo'shiladi.

**Yog'i olingan quritilgan sut** - tarkibida 2 - 3% oqsil, 0,5 - 1,5% yog'lar, 7 - 8% kul moddasi bo'ladi. Ratsionga 2 - 3% gacha qo'shiladi.

**Hayvonot olamidan olingan yog'lar** - juda energiyaga boy oziqa hisoblanib, ochiq havo ta'sirida tez buzilishidan hosil bo'lgan peroksidlar vitaminlarning parchalanishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun hayvonot olamidan olingan yog'lar ishlatalganda vitaminlarni buzilishdan saqlovchi moddalar, ya'ni antioksidantlarni (santoxin, dihidin) qo'llash ehtiyoji tug'iladi. Yog'lar ratsionga 2 - 3% hisobida qo'shilishi mumkin.

#### **Itir hosh tovuqqa kuniga sarflanadigan ozuqa sarfi meyorlari. 5-jadval**

Yoshi (hafta)	Ozuqa istemoli (gr)	Yoshi (hafta)	Ozuqa istemoli (gr)
18	92	26	125
19	98	27	130
20	105	28-40	130
21	110	41-50	127
22	112	51-61	125
23	115	62-72	122
24	117	73-80	120
25	120	81dan yuqori	120-125

*Ishlab chiqarishni arzonlashtirish, ozuqalarni iqtisod qilish uchun parrandaning mahsuldarlik darajasini inobatga olgan holda, o'qiglantirishning uch fazali dasturiga o'tish tavsiya qilamiz:*

*1-faza 18-45 haftalik 5% dan yuqori mahsuldarlik*

*2-faza 46-65 haftalik mahsuldarlik 65-70 % bo'lganda*

*3-faza 66 hafta va undan yuqori mahsuldarlik yuqori bo'lganda*



## OZIQLANTIRISH VA TUXUM VAZNI

Ozuqa rasionini muvozanatlashtirishda ma'lum miqdorda tuxum vazni ham o'zgaradi. Buning uchun quydag'i omillarga e'tabor qaratish kerak bo'ladi:

*O'stirish:* Tuxum qo'yish davrining boshida semirtirish, yani tirik vaznda eng yuqori natija olish uchun to'yimli ozuqa bilan boqish, butun tuxum qo'yish davrida tuxum vaznining yuqori bo'lishiga olib keladi.

*Rasion tarkibi:* Tuxum vaznining yuqori bo'lishi rasiondagi xom protein (oqsil), linoleva kislotasi va metionin moddalarning miqdoriga va rasiondagi kalsiy, fosfor darajasiga to`g'ridan to`g'ri bog'liq bo'ladi.

Tuxum yetishtirishda ration – bu quvvatga boy bo'lgan va to'yimli moddalarga boy yirik zarralarga ega, tarkibida 3,7 foiz kalsiy moddasi mavjud bo'lgan ozuqadir. Keyin fazalik oziqrantirish tartibiga o'tiladi, ya'ni bir tovuqqa nisbatan kunduzgi o'rtacha olingan tuxum hajmi va sarflangan ozuqa miqdori asosiy ozuqaning to'yimliligi bo'ycha ko'rsatkich qilib olinadi.



1-faza ozuqasi tuxum hajmini eng yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratadi (bir tovuqqa bir kunda to`g'ri keladigan 58 gr tuxum hajmi hisobidan). U tuxum qo'yishning boshlanish davriga teng, lekin kalsiy moddasining yuqori hajmi olinadi. Manashunday sharoitlarda sog'lom tovuqning bir kunlik ozuqaga talabi 110-120 grammni tashkil etadi. *Tovuqning Yoshi ulg'aygan sari 2-3 fazalarda ozuqaning tarkibdagi organik moddalarga talab susayadi va kalsiy moddasiga organism talabi kuchayadi.*

*Bir ration tarkibidan boshqa bir ration tarkibiga o'tkazish tovuqlarning Yoshi bilan emas, balki tuxum berish mahsulдорligi va kalsiy moddasiga bo'lgan tallablarga asosan o'tkaziladi.*

Tovuqlarning tuxum berish mavsumida ularning har 10 kunlik davr  
bo'lgan tallablarini inobatga olgan holda rasion tarkibini  
mukammallashtirilib boriladi. Ozuqa tarkibini davrlar orasida tubdan  
o'sgartirishdan saqlanish lozim.

Ozuqning tavsiya etilayotgan to'yyimlilik o'lchamlari unga  
biologik faol moddalarni qo'shish me'yordi albatta tovuqlarga  
beriladigan ozuqalarning kunlik miqdori bilan bog'lanishi kerak (5-jadval).

*Tuxum sifati:* Tuxum sifati a'lo darajada bo'lishi uchun  
quyidagi larda e'tabor qaratish kerak bo'ladi:

-tuxumni bir kunda bir necha marta terish;

-tuxumni uchli tomoni bilan yerga qaratib terish;

-tuxumni xona harorati +5-+10° C va nisbiy namligi 80-85 % da  
muqadsiga mosiq bo'ladi.

Tuxumni yuqori haroratda va nisbiy namligi past xonada saqlash  
undagi gaz almashinuviga kuchalishi sababli sifatining keskin pasaishiga va  
yanning yengillashtirishga olib keladi.

## **TUXUM QO'YISH UYALARI VA TUXUM TERISH**

Tuxum sifatiga tuxum qo'yish uyalarning ham ta'siri bo'ladi. Tuxum  
qo'yish uyalarining to'shamalarini muntazam ravishda almashtirib turish  
va toza holatda saqlash lozim.

Tovuqxonaga me'yor bo'ycha har bir tuxum qo'yish uylariga 4-5 bosh  
tovuq hisobidan qo'yiladi. Tovuqlar tomonidan qo'yilgan tuxumlar  
sonini ko'paytirib yubormaslik uchun yerdan tuxumlarni tez-tez terib  
turish kerak bo'ladi. Tuxumlarni yerga qo'yishini ko'paytirib  
yubormaslik choralarini ko'rish maqsadida tuxum qo'yish uyalarning  
yotarli miqdorda bo'lishi bilan bir qatorda quyidagi omillarga ham  
e'tabor qaratish kerak bo'ladi:

-toza va quruq to'shamasi yoki yumshoq uya poli qoplamasasi;

-uynga oson kirish imkoniyati;

-tovuqxonada tuxum qo'yish uyasining bir tekis qo'yilganligi;

-tovuqxonadagi hamma joylarning bir xil me'yorda yoritilganligi;

-tovuqxonadagi tuxum qo'yish uyalarning bir xilligi.

Yuqori sifatli tuxum olish uchun to'shamali uya yoki oilaviy uyalardan ko'ra plankali poli bor, dumalab tushishga mo'ljallangan polning bir tomoni qiya qilib yasalgan uyalar kerak bo'ladi.

## TOVUQLARNI SAQLASHI BO'YICHA UMUMIY KO'RSATMALAR

Har kungi nazoratni o'tkazishda quydagi ko'rsatkichlarga alohida e'tabor qaratish tavsija etiladi:

-parranda xonani ko'zdan kechirish;

-tovuqxona harorati (18-23°C);

-yem ozuqa va suv uzatilishi (ozuqa va suv iste'mol qilishini har taraflama chuqur o'rGANISH parranda galasining holati bo'ycha juda qimmatli bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi);

-yorug'lik; (3-jadval)

-parrandaning nobut bo'lishi;

-ventilyatsiya;

-har 7-10 kunda tuxum sifati va sonini nazorat qilib boorish;

-mahsulдорligiga qarab rasioni tahsil qilish;

Parranda sog'lomligini aniqlashda umumiylashtirish tasurotlar va nobut bo'lgan parranda to'g'risidagi ma'lumotlar bilan kifoyalanmasdan, ozuqa va suv istcmoli hamda parranda go'ngining holatlarini ham inobatga olish katta ahamiyatga ega.

**Tuxum parrandachiligidagi muvaffaqiyatga erishish uchun quydagi me'yorlarga ahamiyat qaratish lozim:**

- Tovuqlarni yillik tuxum berish miqdori kamida 280 ta bo'lishi kerak.

- 1 kg tuxum uchun beriladigan yem miqdori 2,0-2,2 kg bo'lishi kerak.

-Tuxumlash davrida oylik o'llim miqdori eng ko'pi bilan 1 foiz bo'lishidir.

- Juda ham kichik va sotishga yaramaydigan tuxum miqdori eng ko'pi bilan 5 foiz bo'lishi kerak.

- Siniq tuxumlar miqdori 2 foizdan oshmasligi kerak.

**Bu maqsadga erishish uchun:**

- Gala qancha katta bo'lsa, foyda shuncha ko'p bo'ladi.

- Samaradorligi yuqori zotlar tanlanishi kerak.

- Ozuqa moddalaridan teng miqdorda qo'shilgan aralashma emlar berilishi kerak.
- Sifatli tuxum ishlab chiqarish kerak.
- Bozor sharoitlarini kuzatib borish kerak.
- Tovuqlar 19 oylik bo'lgandan keyin xo'jalik hisobidan chiqarish kerak.

## **TOVUQLAR ORGANIZMIDA MINERALLAR ALMASHINUVINING BIOLOGIK AHAMIYATI**

Tovuqlar tuxumini qobig'ining shakillanishi uchun 1,5-2,5 gr kalsiy va taxminan 0,1 gr fosfor sarflaydi. Tuxum yo'nalishdagi tovuqlarda kalsiy 50 foizga va fosfor 40 foizga hazmlanishi yaxshilanadi. Tuxum tug'adigan tovuqlar organizmida kalsiy va fosfor oshqazon ichaklarda hazmlanishiga turlicha sabab bo'ladi: ratsionga qo'shiladigan kalsiy va fosforli mineral premikslarning turlari, hazmlanishi, ular organizmida modda va energiya almashinish darajasi, tovuqlar organizmiga kalsiy va fosforning hazmlanishida D guruhi vitamunlar muhum ahamiyat kasb qiladi [15; 196-b].

Moddalar almashinuvining buzulishlari parrandalar orasida keng tarqalgan bo'lib, parrandalarning 50-60% kasalliklari va o'limi ularning hisobiga to'g'ri keladi. Vitaminlar va mineral moddalar yetishmovchiligi kasalliklari keng tarqalgan bo'lib, parrandalarda bir vaqtning o'zida bir nechta gipovitaminozlar va mineral moddalar almashinuvи buzulishlari aralash belgilari bilan kechadi [126; 321-b, 128; 122-b, 127; 94-96-b].

Mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra tovuqlar organizmida modda va energiya almashinuvи jarayonlarining fiziologik me'yordarda kechishi va mahsulorlikning ko'payishi uchun: ular organizmida oqsillar, aminokislotalar, uglevodlar, yog'lar, gormonlar, vitaminlar va mineral moddalar yetarlicha bo'lishi ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligida parrandachilikni rivojlantirish, ulardan sifatli tuxum va go'sht muhsulotlari olish hamda kasalliklarga chidamliligini oshirish uchun minerallar va vitaminlar ham alohida ahamiyatga ega hisoblanadi [105; 8-11-b, 131; 39-41-b].

D gipovitaminizozi surunkali kasallik bo'lib, kalsiy-fosfor almashinuvining buzulishi va suyak to'qimasi o'sishining yomonlashuvi bilan tavsiflanadi. Asosan, 3-5 oylik yoshdagи jo'jalar kasallanadi [126; 321-323-b, 128; 122-b].

Tovuqlar organizmida kalsiy muhim ahamiyatga ega bo‘lgan biogen modda bo‘lib, ular organizmidagi barcha kalsiyning 99 % suyakda, taxminan 1 % qonda uchraydi. Kalsiy yetishmasligi bir qator kasalliklarni keltirib chiqaradi. Kasallikni davolashda tarkibida kalsiy xlorid va kalsiyglukonat saqlagan preparatlardan ko‘p ishlatalidi. Tovuqlar ratsionga qo‘shiladigan mineral moddalar suyak va qon unidan tayyorlangan ozuqa qo‘shimchalaridan foydalanilmoqda [114; 194-b, 109; 13-20-b].

Broylerlarning jadal o‘sishi va me’yorda rivojlanishi uchun mineralli oziqlantirish katta ahamiyatga ega. Ozuqa ratsionini mineral moddalar bilan muvozanatlashtirish maqsadida bo‘r, suyak uni, ftorsizlantirilgan fosfatlar qo‘shiladi. Bundan tashqari imkon bo‘lganda chig‘anoq qo‘shish ham yaxshi natijalar beradi. Ratsionda kalsiy bilan fosfor munosabati 2:1 ni tashkil etishi lozim [138; 34-b, 115; 18-b].

Kalsiy (Ca) - davriy jadvalning II guruhi elementi (tartib raqami 20, atom massasi 40,08) - umumiy kimyoviy elementlarga kiradi va yer qobig‘i og‘irligining 3,6 foizni tashkil qiladi. Tabiatda kalsiy karbonat -  $\text{CaCO}_3$  (ohaktosh, bo‘r, marmar), kalsiy sulfat -  $\text{CaSO}_4$  (gips), kalsiy ftorid -  $\text{CaF}_2$  (ftorit), ftor apatit -  $\text{Ca}_5(\text{PO}_4)_3\text{F}$  va dolomit -  $\text{CaCO}_3 \text{MgCO}_3$  shaklida uchraydi [83; 108-428-b].

Tovuqlarning tuxum berish mavsumida ularning har 10 kunlik davr ichida tovuqlarni kunlik tuxum berish ko‘rsatkichlari va to‘yimli muddalarga bo‘lgan talablarini inobatga olgan holda ratsion tarkibi mukammallashtirilib berilishi talab etiladi. Ozuqa tarkibini davrlar orasida tubdan o‘zgartirishdan saqlanish lozim. Tovuqlarga beriladigan ratsionning strukturasi, unga biologik faol muddalarni qo‘shish me’yorlari tovuqlarga beriladigan ozuqlarning kunlik miqdori bilan bog‘liq bo‘lishi kerak [135; 9-18-b].

Tuxum asosiy 3 qismiga bo‘linadi:a) po‘stloq b) oqsil hamda c) sariqlik qismi.

Po‘stloq. Ushbu qavat tuxumni tashqi muhit bilan bog‘labgina qolmay himoya qilish vazifasini ham bajaradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Po‘stloq organik va anorganik muddalardan tashkil topgan bo‘lib, uning qariyb 90% ini kalsiy karbonat ( $\text{CaCO}_3$ ), magniy fosfat ( $\text{Mg}_3(\text{PO}_4)_2$ ) va kalsiy fosfat ( $\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2$ ) tashkil qiladi. Organik moddalar esa 3-6 foizini tashkil etadi. Po‘stloqda juda ham mayda teshikchalar bo‘lib, u orqali namlik almashinib turadi va shu bilan

birgalida bu teshikchalardan tuxumning ichiga mikroorganizmlar kiritish mumkin.

Oqil qavat. Bu qavat ham o‘z navbatida 3 qismga bo‘linadi  
ichki qavat  
o‘rtu zinch qavat  
tashqi suyuq qavat.

Bu qavatlar ham o‘z o‘rniga ya’ni, bakteriotsid va bakteriostatik  
yurusiyatga egadir.

Tuxum sarig‘i. 3-qism hisoblangan bu qavat tashqi tomondan  
yopqa, timiq,

yaltiroq qobiq bilan o‘ralgan, rangi to‘q sariq bo‘lib, tarkibida  
karbon va ksantofil pigmentlari bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Yoz  
oyalarida tovuqlarning ko‘k o‘t eyishi hisobiga tuxum rangi yashilsimon  
ko‘rinishda bo‘lib, o‘t tuxum deyiladi [125; 38-42-b].

Hayvonlarni oziqlantirish natijasida ular organizmiga kalsiyli  
birikmalarining uchta turi farqlanadi: suvda yaxshi eruvchan tuzlar,  
adsorbsiyalangan kalsiyli tuzlar, kislotada yaxshi eruvchan kalsiyli  
tuzlar farqlanadi. Suvda eriydigan limon kislotalarning tuzlari va kam  
hollarda kalsiy oqsillar bilan birikkan holda ifodalanadi.  
Adsorbsiyalangan kalsiyli fraksiyalar asosan kalsiy proteinlari va  
tarkibida kalsiyli polimer birikmalar tomonidan hosil bo‘ladi. Kuchsiz  
barakatlanuvchi, kislotada eriydigan fraktsiya oksalat va moy  
kislotalarning tuzlari bilan ifodalanadi. Ratsiondag‘i umumiyligi kalsiyning  
maxminan 3 % lipidlar bilan bog‘liq holda organizimga o‘zlashtiriladi  
[27; 471-b, 82; 104-b, 112; 281-282-b].

Kalsiyning asosiy qismi o‘simliklarning barglari va poyalarida  
toplangan holda saqlanadi, kalsiy o‘simlik ildizlarida deyarli  
uchunmaydi. O‘simliklarning meva va urug‘larida kalsiy birikmalari  
miqdori nisbatan kam uchraydi. Tovuqlar organizmida  
o‘zlashtirilmaydigan kalsiyli tuz bu kalsiy fitat tuzlaridir. Hayvonlar  
mahsulotlaridan tayyorlanadigan ozuqalar go‘sht, suyak va baliq unida  
kalsiy va fosfatlarni tarkibida ko‘p saqlaydi [83; 108-428-b, 91; 71-73-b].

Olimlarning so‘zlariga ko‘ra hayvonlar va parrandalarning tanasida  
kalsiy kontsentratsiyasining o‘zgarishi tana vaznining 0,4-1,8 % gacha  
bo‘lgan ma’lumotlarni sezilarli darajada tarqalishi bilan tavsiflenadi.

Bunday o'zgarishlar parrandalarning turlari, yoshi, mahsuldarligi va fiziologik holatiga qarab turlicha bo'ladi [27; 476-b, 26; 468-478-b].

Tuxumdan chiqqan jujalar tanasida atiga 0,4 % kalsiy topilgan va bu jujalarning tirik vazni 1,5 kg bo'lguncha o'stirilgandan keyin tovuqlarda umumiyligi kalsiyning konsentratsiyasi 11,4 % gacha ko'paygan. Shu bilan birga, parrandalarning tanasida kalsiy miqdori juda tez ortgan. Tuxumdan chiqqan jujalar birinchi oyining oxiriga kelib, umumiyligi kalsiy miqdori 11,1 foizga barqarorlashadi, shundan so'ng faqat kalsiyning umumiyligi massasi skelet va tananing o'sishiga mutanosib ravishda ortadi [21; 76-77-b, 27; 328-b, 63; 215-217-b, 83; 426-b].

Kalsiy birinchi navbatda tuxum qo'yadigan tovuqlarda suyak shakllanishi va tuxum qobig'ining shakllanishi uchun kerak. Kalsiyning asosiy manbayi suyaklarda kalsiy fosfat va kalsiy karbonat tuzlari shaklida ko'p bo'ladi. Hayvonlar organizmida kalsiyning vazifalari ham ko'p bo'lib, kalsiy ionlari asab va mushak faoliyatini, ko'payish organlari funktsiyalarni tartibga solishda ishtirok etadi va yurak faoliyatini boshqarilishida ham muhum vazifalarni bajaradi. Kalsiyning sintezlanishi va moddalarni parrandalar go'shtining fosfor, magniy, kaliy, temir va boshqa moddalar hamda D<sub>3</sub> vitamini va boshqa minerallar bilan ta'minlanishi bilan chambarchas bog'liqdir [21; 76-77-b, 26; 468-476-b, 59; 24-b, 60; 26-27-b, 68; 134-b, 83; 108-b, 101; 342-b, 112; 281-282-b].

Tuxum tug'adigan tovuqlar qonida kalsiyning miqdori pasayganda kalsiy almashinuviga faqat suyak to'qimalarining qonga qayta dekalsifikatsiyasi jarayonida ajralib chiqadigan kalsiy va fizik-kimyoiy qonuniyatlarga binoan qonga o'tadigan vaqtinchalik skeletdan kalsiyini o'zlashtiradi. Hayvonlar organizmida kalsiyning aylanishi ikki xil bo'ladi: tez almashinadigan va sekin almashinadigan kalsiyning birikmalari ajralib turadi. Almashinadigan kalsiy ko'pincha tuxum tug'adigan tovuqlarda suyaklardagi kalsiyining 3-5 foizni, jujalarda esa 9-11 foizni tashkil qiladi [26; 468-476-b, 61; 98-b, 69; 288-b, 82; 104-b].

Yoshga bog'liq holda parrandalar suyaklaridagi metabolik jarayonlarning intensivligi pasayadi, tez almashinadigan kalsiy fraktsiyasining ulushi esa asta-skin kamayadi [21; 76-77-b, 83; 108-428-b].

Tuxum qo'yadigan tovuqlarda tuxum qo'yish davrida g'ovak suyaklarning suyak iligi bo'shliqlarida o'ziga xos medullar suyak to'qimasi hosil bo'ladi. Uning massasi skeletning umumiy massasining 10-12 % gacha bo'ladi. Bu to'qima kalsiyning harakatchan manbai bo'lib, tuxum qobig'ining shakllanishi uchun bevosita foydalaniladi [83; 108-428-b].

Parrandalarni kalsiy bilan ta'minlash darajasi sifatida qon zardobidagi kalsiy miqdori, suyaklardagi kalsiyli tuzlar miqdori, suyaklarni mustahkamligi, suyaklarning massasi, suyaklarning hajmi va ichligini ko'rsatish mumkin [76; 86-88-b, 77; 33-34-b, 81; 41-42-b].

Qondagi kalsiyning asosiy qismi qon zardobida ikkita asosiy fraksiya shaklida uchraydi - ultrafiltrlar orqali diffuziyaga qodir (umumiy kalsiyning 65 %) va diffuziyaga qodir emas (umumiy kalsiyning 35%). Diffuziyalanuvchi kalsiyning 15 % ni kalsiygidrokarbonat, kalsiyfosfat va kalsiy nitrat bilan yuqori molekulyar birikmalarda bog'lanadigan kalsiyimi asosiy qismini ionlangan kalsiy ( $\text{Ca}^{2+}$ ) tashkil etadi. [23; 28-29-b, 76; 86-88-b, 83; 108-428-b, 108; 34-b].

Tarqaladigan va tarqalmaydigan kalsiy fraktsiyalarining nisbati oqsil bilan bog'langan kalsiy tufayli o'zgarishi mumkin. Tuxum tug'adigan tovuqlarda tuxum tug'ish davrida kalsiy-oqsil va kalsiy-fosfolipoprotein komplekslari hisobidan qon zardobidagi kalsiyning umumiy darajasi ko'payadi. Ionlangan kalsiy kontsentratsiyasi o'zgarmaydi (tuxum qo'yadigan tovuqlarda taxminan 6 mg %) yoki kichik chegaralarda o'zgarib turadi. Ionli kalsiyning karbonat kislotasi tuzi shaklida qobiqqa cho'kishi ionli kalsiyning qonda tarqalishiga yordam beradi [23; 28-29-b, 34; 56-57-b].

Tovuqlarning organizmida uchraydigan organik tuxum mahsulorligiga qarab sezilarli darajada o'zgaradi, tuxum tug'ishdan 5 kun oldin va undan 2 kun o'tgach qondagi kalsiyning miqdori 4 mg% dan 13 mg% gacha oshadi. Bu o'zgarishlar tuxum sarig'ini hosil qiluvchi qon oqsili vitellogeninning ko'payishi bilan bog'liq. Vitellogenin tuxum qo'yadigan tovuqlarning qon zardobidagi asosiy Ca  $\text{Ca}$  bog'langan oqsil (CaCB-1) hisoblanadi. Ikkinchi kalsiy bilan bog'liq protein (CaCB-2) immunologik jihatdan sarum albuminlari bilan bir xil. CaCB-1 CaCB-2 ga qaraganda 25 baravar yuqori kalsiy (Ca)-bog'lanish qobiliyatiga ega [34; 56-57-b, 83; 108-428-b].

Kalsiyning so‘rilishi asosan ingichka ichakning yuqori qismida ikki yo‘l bilan sodir bo‘ladi – kalsiyning ichak devori orqali faol o‘tishi natijasida va o‘ziga xos kalsiyni bog‘lovchi oqsil yordamida. Bu jarayonlarda D<sub>3</sub> vitamini muhum bo‘lib uning konsentratsiyasi faollashadi. Tovuqlar organizmida kalsiyning meyorda bo‘lishi ular organizmida magniy, temir, fosforning ortiqcha miqdorini kamaytiradi. Kalsiyni bog‘laydigan oqsilning kontsentratsiyasi nisbatan doimiy bo‘lib, tuxum qo‘yish davrida kalsiyni bog‘lash qobiliyati ikki barobar ortadi. Ichak devorlarining kalsiy uchun o‘tkazuvchanligi tovuq tanasining gormonal holatiga bog‘liq emasligi aniqlangan. Qobiqning maksimal kalsifikatsiyasi davrida siydikda kalsiyning ajralib chiqish darajasi keskin pasayadi (5-7 marta). Shunday qilib, tuxum tug‘maydigan davrida siydik bilan kalsiyning chiqarilishi 40 mg% dan 50 mg% gacha, tuxum tug‘adigan davrida qobiq shakllanish davrida esa 5 mg% dan 8 mg% gacha bo‘lishi mumkin. Yuqoridagi ma‘lumotlar tuxum qobig‘i hosil bo‘lish davrida tovuqlar organizmida kalsiyni so‘rilishini oshirishi aniqlandi [24; 56-57-b, 83; 108-426-b, 62; 389-391-b].

Tovuqlarning oshqozonida, me‘da shirasining ta‘siri ostida, ozuqa tarkibidagi kalsiyning katta qismi kalsiy xloridga aylanadi, u deyarli darhol ionlarga ajraladi. Ingichka ichakka kirib, kalsiy ionlari ichak shilliq qavati hujayralari tomonidan ishlab chiqarilgan o‘ziga xos kalsiyni bog‘laydigan oqsillar (CaBP) bilan reaksiyaga kirishadi. Bu oqsillar kontsentratsiya gradientiga qarshi qon oqimiga so‘riladi va bu o‘tish vitamin D<sub>3</sub> metabolitlari tomonidan boshqariladi [24; 16-b, 83; 108-428-b].

Eriydigani kalsiy birikmalarining muhim qismi, shu jumladan uning ba‘zi erkin ionlari ingichka ichakda fosfor va karbonat kislotalarining kislotali qoldiqlari bilan yana reaksiyaga kirishadi. Bundan tashqari, ular yuqori yog‘li kislotalar bilan erimaydigan birikmalar hosil qiladi: palmitik, stearik va olein. Ushbu suvda erimaydigan birikmalar 30-100 angstromgacha emulsiyalanadi va o‘ziga xos aralash misellalarga aylanadi. Misellar hujayra membranalariga kirib, kalsiyni qon oqimiga olib kirishga qodir, yog‘kislotalari esa chiqariladi va ingichka ichak devorida yog‘larni qayta sintez qilishning klassik reaksiyalarida ishtirok etadi. Miselyar kalsiyning o‘tkazilishi natriy ionlari tomonidan

faollashtiriladi, ortiqcha yog'lar, fosfatlar, magniy va alyuminiy ionlari bu jarayonni nazorat qiladi [83; 108-428-b, 58; 36-b, 66; 35-b].

Kalsiyning so'riliш darajasi parrandalarning turi, yoshi va jinsi, kalsiyning kimyoviy shakli va ratsiondagи kalsiy manbalarining nisbati kabi bir qator omillarga bog'liq ravishda sezilarli darajada farq qiladi.

Rux elementi ko'plab ferment tarkibiga kiradi, oqsillar va uglevodlar almashinuvida muhum ahamiyatga ega osteogenez, genatopocz jarayonlarida ishtirok etadi, tumum po'chog'ining shaklanishida va patlarning normal rivojlanishi uchun zarurdir, parrandalarning o'sishi, rivojlanishi va reproduktiv funksiyasiga ta'sir qiladi [83; 108-428-b, 102; 25-28-b, 107; 81-83-b].

Rux yetishmovchiligi kalsiy miqdori yuqori bo'lganda yuzaga keladi, bu esa asosiy dietadan va mineral qo'shimchalardan ruxdan foydalanishni nazorat qiladi. Bu tovuqning tanasida ruxning so'riliшini sekinlashiradi, bu uning ikkilamchi yetishmasligining sababi bo'lishi mumkin. Tovuqlarning tanasida ushbu elementning yetishmasligi iшtahuning pasayishi, bo'yning o'sishi, patning mo'rtligi va pigmentatsiyasining yo'qolishi, tuxum qobig'ining qalinligining pasayishi, unumdorlikning pasayishi va dermatozlar bilan namoyon bo'ladi. Embrionlarda surunkali rux tanqisligi, orqa miya egriligi, bosh deformatsiyasi, shish, miya, ko'z va ichki organlarning anomaliyalari bo'lgan tovuqlardan olingan tuxumni inkubatsiya yaxshi samara berma ligi qayd etiladi [9; 77-78-b, 55; 17-18-b, 102; 25-30-b].

Tajribadagi 24 haftalik tovuqlarning tana harorati  $40,1 \pm 0,1$   $^{\circ}\text{C}$  ni, 52 haftalik tovuqlarda  $40,7 \pm 0,4$   $^{\circ}\text{C}$  ni, 67 haftalik tovuqlarda esa  $41,2 \pm 0,6$   $^{\circ}\text{C}$  ni tashkil qildi, tana vazni tovuqlarda  $1667 \pm 13$  grammni, 52 haftalik  $1815 \pm 12$  grammni, 67 haftalik tovuqlarda esa  $1852 \pm 18$  grammni tashkil etishi aniqlandi (3.1.2.1-javval).



A-rasm. 52-haftalik



B-rasm. 24 haftalik

Furneqlarda kalsiy va fosfor almashinuvining buzilishlarida patlarning kishisi va terining quruqlashish holati



A-rasm. Xo‘jalik sharoitida



B-rasm. Uy sharoitida

Furneqlarda kalsiy va fosfor almashinuvining buzilishlarida alopetsiya holati

7-jadval

Tajribadagi tovuqlarning klinik ko'rsatkichlari.

Xo'jaliklar nomi	Tovuqlar bosh soni	Tovuqlar Yoshi	Tana vazni o'rtacha, (g)	Tana harorati, ( $^{\circ}$ C)	Toj sirg'alar ranguining oqarishi	Va	Patarning hurpayishi	Alopetsiya %
Darg'om parranda fayz	343	24	3325±11	41,3±0,2	149	43,5	183	53,5
	205	52	3635±15	40,8±0,4	81	39,5	113	55,6
	527	67	3712±12	41,4±0,65	252	47,8	305	57,9
Jamisi	<b>1075</b>				<b>482</b>	<b>44,8</b>	<b>601</b>	<b>55,9</b>
Agro-Lingt parranda	547	24	1667±13	40,3±0,3	195	35,6	293	53,6
	368	52	1815±10	40,7±0,4	157	42,7	208	56,5
	563	67	1852±18	41,2±0,6	274	48,7	328	58,2
Jamisi	<b>1478</b>				<b>626</b>	<b>42,3</b>	<b>829</b>	<b>56</b>
								<b>872</b>
								<b>58,9</b>

Tovuqlarda klinik tekshirishlar natijalari o‘rtacha 42,3-44,8 foiz tovuqlarda toj va sirg‘alar rangining oqarishi, lizuxa, tana vazning ismayishi, terining quruqlashuvi kuzatilib, 55,9-56 foizida patlarning hurpayishi, 58-59 foizida tananing bo‘yin va dum qismlarida patlarning usishi, 18-23 foizda tuxumning yupqa po‘choqli bo‘lishi aniqlandi.


Tajribalar davomida tovuqlarda klinik tekshirishlar tahsiliga ko‘ra tovuqlarning 30,7-53,8 %da umumiyligini holsizlanish, toj va sirg‘alarning usishi, harakatning pasayishi, ishtahaning pasayishi, o‘sishdan qolish, usiqish, mahsuldarlikning pasayishi, terining yupqalashishi va quruqlashishi, patlarning hurpayishi, 12-16% tovuqlarda patlarning usishi va tez sinuvchan bo‘lishi kabi belgilar kalsiy va fosfor almashinuvini buzilishlariga xos bo‘lgan klinik belgilar kuzatildi.

Tovuqlar qonidagi biokimiyoviy o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadida Samarqand viloyatining Pastdarg‘om tumani “Darg‘om Parranda Fayz” MCHJda va Qashqadaryo viloyati Kasbi tumandagi “Agro-Lingt Parranda” MCHJdagi tovuqlardan “o‘xshash juftliklar” ismayili asosda ajratib olingan tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvini tahlilchilarni ertachi diagnostika qilish va kechish xususiyatlarni o‘rganish maqsadida 24-52-67 haftalikdagidan tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarning qanot osti venasidan qon namunalarini olinib har oyda bir marta laborator tahlil qilinib borildi. (Tekshirish usullari 3.1 bo‘limda yeltilgan).

“Darg‘om Parranda Fayz” MCHJdagi tovuqlarning 24 haftalikdan 67 haftalikga o‘tgan davrda tovuqlar qonning biokimiyoviy tahlil qilingunda 24 haftalikda gemoglobin miqdori o‘rtacha  $96,7 \pm 2,5$  g/l (me’yorda 80-120 g/l) ni, glyukoza- $5,46 \pm 0,43$  mmol/l (me’yorda 4,8-6,7) ni, qon zardobidagi umumiyligini oqsil- $48,2 \pm 0,14$  g/l (me’yorda 42,8-51,4) ni, umumiyligini kalsiy- $3,12 \pm 0,4$  mmol/l (me’yorda 2,5-4,5) ni, anorganik fosfor- $2,31 \pm 0,1$  mmol/l (me’yorda 1,5-2,5) ni tashkil qiladi (7 jadval ilovada).

Tovuqlarning 52 haftaligida qondagi gemoglobin miqdori o‘rtacha  $97,5 \pm 2,3$  g/l ni, glyukoza- $5,32 \pm 0,22$  mmol/l ni, qon zardobidagi umumiyligini  $46,5 \pm 0,22$  g/l ni, umumiyligini kalsiy- $2,86 \pm 0,1$  mmol/l ni, anorganik fosfor- $1,84 \pm 0,5$  mmol/l ni tashkil qildi va 67 haftalikda gemoglobin miqdori o‘rtacha  $87,4 \pm 1,3$  g/l ni, glyukoza- $4,86 \pm 0,34$  mmol/l ni, qon zardobidagi umumiyligini oqsil- $42,6 \pm 0,21$  g/l ni, umumiyligini kalsiy- $2,57 \pm 0,3$  mmol/l ni, anorganik fosfor- $1,58 \pm 0,2$  mmol/l ni tashkil qildi.

**Tovuqlar qonining biokimiyoviy ko'rsatkichlari ("Darg'om Parranda Fayz" va "Agro-Lingt Parranda")**



Tovuqlarda mahsuldorlikning ortishi qonning biokimyoviy ko'rsatkichlarining me'yoriy ko'rsatkichlarga nisbatan kamayib borishi xarakterlandi (3.1.3.1-rasm).


"Agro-Lingt Parranda" MCHJda tovuqlardan olingen qon umumalarini biokimyoviy tahlil qilinganda 24 haftalikda qondagi gemoglobin miqdori o'rtacha  $98,7 \pm 2,1$  g/l ni, glyukoza- $5,58 \pm 0,4$  mmol/l ni, qon zardobidagi umumiyoqsil- $51,6 \pm 0,12$  g/l ni, umumiyoqsil- $3,14 \pm 0,31$  mmol/l ni, anorganik fosfor- $2,32 \pm 0,3$  mmol/l ni tashkil qildi.

Tovuqlarning 52 haftaligida qondagi gemoglobin miqdori o'rtacha  $92,6 \pm 2,1$  g/l ni, glyukoza- $5,39 \pm 0,32$  mmol/l ni, qon zardobidagi umumiyoqsil- $47,2 \pm 0,11$  g/l ni, umumiyoqsil- $3,02 \pm 0,2$  mmol/l ni, anorganik fosfor- $1,92 \pm 0,1$  mmol/l ni tashkil qildi va 67 haftalikda gemoglobin miqdori o'rtacha  $86,6 \pm 1,8$  g/l ni, glyukoza- $5,28 \pm 0,21$  mmol/l ni, qon zardobidagi umumiyoqsil- $43,4 \pm 0,14$  g/l ni, umumiyoqsil- $2,78 \pm 0,4$  mmol/l ni, anorganik fosfor- $1,66 \pm 0,4$  mmol/l ni o'rtacha kamayishi xarakterli bo'ldi.

Tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvni buzilishlarini diagnoz qilishda qonidagi kalsiy-fosfor nisbatini tahlil qilish muhim umillardan hisoblanadi. "Darg'om Parranda Fayz" MCHJ 24 haftalikdagi tovuqlar qonnining kalsiy:fosfor (Ca:P) nisbati 1,35:1 ni, 32 haftalikda 1,55:1 ni, 67 haftalikda 1,62:1 ni, Agro-Lingt Parranda MCHJ 24 haftalikdagi tovuqlar qonnining kalsiy:fosfor (Ca:P) nisbati 1,35:1 ni, 52 haftalikda 1,57:1 ni, 67 haftalikda 1,74:1 ni tashkil qildi (me'yorda 1,8-2:1) bu nisbatlar fiziologik holatdagi minimal holatlari va mahsulot olish uchun yetarli darajada ta'minlanmaganligini bildirib, tovuqlar organizmida surunkali ravishda kalsiy va fosfor yetishmovchiligidini kelib chiqishga olib keladi (7-jadval).

Dispanser tekshirishlar orqali tovuqlar qonini biokimyoviy tekshirish natijasida qonda gemoglobin, gulkoza, umumiyoqsil, umumiyoqsil kalsiy, anorganik fosfor miqdorlarining kamayishi bilan javoblanadi.

## Tovuqlar qonining biokimoviy ko'rsatkichlari



## **TOVUQLARDA KALSIY VA FOSFOR ALMASHINUVI IZILISHLARIDA TUXUMDA KUZATILADIGAN MORFOGIK O'ZGARISHLAR**



Tovuqlarni saqlash va oziqlantirish bilan birgalikda tuxumni ham morfologik tekshirishlar olib borildi. Tovuq tuxumlarini miqdor va qili ko'rsatkichlari irsiy omillarga, ularning zotga, tovuqlarning nasli, yoshi bilan birgalikda oziqlantirish va saqlash sharoitlarining foydaliligiga bog'liq. Tuxum tarkibidagi ozuqa moddalari va biologik faoli moddalar zahiralari uning vazni va sifatini belgilaydi. Tuxum nasli ko'paytirish uchun yaratilgan tabiiy mahsulotdir. Inkubatsiya qilinadigan tuxumlarning massasi juda muhim sanaladi. Broyler tovuqlarini inkubatsiya qilish uchun mo'ljallangan tuxumlarning og'irligi alohida ahamiyatga ega: bir kunlik jo'jalarning vazni ular chiqqan tuxumlarning vazniga to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir. Broylerlarni boqishda yakuniy tana vazni boqilgan jo'jalarning birinchi kunlikdagi vazniga ijobji bog'liq sanaladi.

Kattaroq tuxumlar og'irroq qismlardan iborat bo'ladi, ammo bu tuxumlarni yig'ish va tashish paytida ko'proq shikastlanadi. Tuxum vaznini oshirish uchun naslchilik bilan shug'ulanadigan xo'jaliklar, tuxum vazni tuxum ishlab chiqarish bilan birgalikda nazoratga olish kerak. Ovipozitsiyaning boshida yosh tovuqlar kichik tuxum qo'yadi. Yoshi bilan tuxum massasi ortadi va bir yoshga kelib optimal qlymatga yetadi.

"Darg'om Parranda Fayz" MCHJdag'i 24, 52 va 67 haftalik tovuqlar tuxumlarning morfologik tahlilini o'tkazishda ulardan olingan hisoblarni 30 kun mobaynida tekshirishlar olib borildi.

Tekshirishlar natijalarga ko'ra 24 haftalik yoshdagi tovuqlardan olingan tuxumlar soni 989 ta bo'lib, tuxum mahsulorligi 73,3 foizni tashkil qilib shulardan shakli o'zgargan tuxumlar 13,7 foizini, yupqa po'chog'li tuxumlar 4,2 foizini tashkil qildi. Tuxumlarning o'rtacha og'irligi 100 donaga nisbatan o'rtacha  $55,1 \pm 0,4$  foizni tashkil qildi, tuxum po'chog'inинг og'irligi o'rtacha 100 donaga nisbatan  $5,4 \pm 0,08$  foizni tashkil qildi. Tuxum oqsilining indeksi o'rtacha  $72,1 \pm 0,03$  foizni, sarig'inинг indeksi o'rtacha  $46,3 \pm 0,72$  foizni tashkil qildi. Inkubatorga saralab qo'yiladigan tuxumlar o'rtacha 68-75 foizni tashkil qildi.

## Tajribalardan keyin birinchi tajriba guruhdagi tovuqlardan olingen tuxumlar



Tekshirishlar natijalariga ko‘ra 52 haftalik yoshdagi tovuqlardan olingen tuxumlari 1138 ta bo‘lib tuxum mahsuldorligi 84,3 foizni tashkil qilib shulardan shakli o‘zgargan tuxumlar 18,6 foizini, yupqa po‘chog‘li tuxumlar 14,4 foizini tashkil qildi. Tuxumlarning o‘rtacha og‘irligi 100 donaga nisbatan o‘rtacha  $59,1 \pm 0,21$  foizni tashkil qildi, tuxum po‘chog‘ining og‘irligi o‘rtacha 100 donaga nisbatan  $6,5 \pm 0,07$  foizni tashkil qildi. Tuxum oqsilining indeksi o‘rtacha  $88,1 \pm 0,23$  foizni, tuxum sarig‘ining indeksi o‘rtacha  $49,1 \pm 0,61$  foizni tashkil qildi. Ingkubatorga saralab qo‘yiladigan tuxumlar o‘rtacha 70-82 foizni tashkil qildi.

Tekshirishlar natijalariga ko‘ra 67 haftalik yoshdagi tovuqlardan olingen tuxumlari 1196 ta bo‘lib tuxum mahsuldorligi 88,6 foizni tashkil qilib shulardan shakli o‘zgargan tuxumlar 24,3 foizini, yupqa po‘chog‘li tuxumlar 18,6 foizini tashkil qildi. Tuxumlarning o‘rtacha og‘irligi 100 donaga nisbatan o‘rtacha  $62,3 \pm 0,87$  foizni tashkil qildi, tuxum po‘chog‘ining og‘irligi o‘rtacha 100 donaga nisbatan  $6,5 \pm 0,07$  foizni tashkil qildi. Tuxum po‘chog‘ining og‘irligini o‘rtacha 5,97 g/% ga kamayishi aniqlandi. Tovuqlarning mahsuldorligining ortishi ular organizmida kalsiy va fosforning kamayishi natijasida tuxum po‘chog‘ining yupqalashi bilan xarakterlandi. Tuxum oqsilining indeksi o‘rtacha  $94,6 \pm 0,21$  foizni, tuxum sarig‘ining indeksi o‘rtacha  $46,7 \pm 0,47$  foizni tashkil qildi. Ingkubatorga saralab qo‘yiladigan tuxumlar o‘rtacha 75-85 foizni tashkil qildi.

Tuxumlarning kimyoviy tarkibi ko‘plab omillarga, jumladan, oziqlantirish sharoitlariga bog‘liq hisoblanadi. Tovuqlar yoshi ulg‘aygan sari tuxumdagи oqsil miqdori kamayadi, yog‘ miqdori esa

ortadi. Tovuqlarni oziqlantirishda ratsiondag'i kalsiy - fosfor, oqsil - kalsiyning nisbatlari tuxumlarning kimyoviy tarkibi oshirishda juda muhim hisoblanadi. Shunday qilib, tovuqlar ratsionga qo'shimcha lo'kibda kalsiy, fosfor va boshqa minerallar kompleksini tovuqlar ozuqasiga kiritish tuxumlarning morfologik va kimyoviy sifatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, bu tovuq tanasida mineral almashinuvining yanada jadvalashni ko'rsatadi (7-jadval).





"Agro-Lingt Parranda" MCHJ asosan ekspert bop tuxum ishlab chiqarishga moslashgan xo'jalik sanaladi. Tuxumlarni ichki va tashqi bozorlarda sotishda tuxumning morfologik xususiyatlari juda muhim sanaladi. Shularni inobatga olgan holda tovuqlarni saqlash va oziqlantirish bilan birgalikda tuxumni ham morfologik tekshirish xo'jaliklar uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

"Agro-Lingt Parranda" MCHJda tovuqlarni tuxumlari morfologik ishlilini 24, 52 va 67 haftaliklari ajratib olinib, ulardan olingan tuxumlar 30 kun mobaynida tekshirildi.


Tekshirishlar natijasida 24 haftalik tovuqlardan olingan tuxumlar soni 927 ta bo'lib mahsulдорлиги 68,7 foizni tashkil qildi. Shulardan shakli o'zgarganlari 23,1 foizini, yupqa qobig'lilari 15,2 foizini tashkil qildi. Tuxumlarning o'rtacha og'irligi 100 donaga nisbatan o'rtacha  $52,4 \pm 0,3$  foizni tashkil qildi, tuxum po'chog'inining og'irligi o'rtacha 100 donaga nisbatan  $5,1 \pm 0,01$  foizni tashkil qildi. Tuxum oqsilning indeksi o'rtacha  $69,2 \pm 0,02$  foizni, tuxum sarig'inining indeksi o'rtacha  $44,4 \pm 0,41$  foizni tashkil qildi. Tovuqlardan olingan tuxumlarni sotishga yaroqlilik ko'rsatkichi o'rtacha 92-94 foizni tashkil qildi.

Tekshirishlar natijalariga ko'ra 52 haftalik yoshdag'i tovuqlardan olingan tuxumlar soni 1031 ta bo'lib tuxum mahsulдорлиги 76,4 foizni tashkil qilib shulardan shakli o'zgargan tuxumlar 12,4 foizini, yupqa po'chog'li tuxumlar 17,9 foizini tashkil qildi. Tuxumlarning o'rtacha og'irligi 100 donaga nisbatan o'rtacha  $55,6 \pm 0,1$  foizni tashkil qilib, tuxum po'chog'inining og'irligi o'rtacha 100 donaga nisbatan  $6,1 \pm 0,12$  foizni tashkil qildi. Tuxum oqsilning indeksi o'rtacha  $84,1 \pm 0,13$  foizni, tuxum sarig'inining indeksi o'rtacha  $46,8 \pm 0,32$  foizni tashkil qildi. Tovuqlardan olingan tuxumlarni sotishga yaroqlilik ko'rsatkichi o'rtacha  $93,96$  foizni tashkil qildi.

## Kalsifikatsiyaning buzilishi



**Kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari natijasida tuxum po'chog'ining yupqalashishi**



**Kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarida tuxum po'chog'ining mo'rtlashi va shaklining o'zgarishi**

“Darg’om Paranda Fayz” MCHJ tovuzqlari tuxumlarinin morfologik tahlili

Tovuqlar Yoshi haftalik	30 kunlik tuxumlar		Shakli o’zgargan tuxumlar		Yupqa po’chog’ili tuxumlar		Tuxumning o’rtacha og’irligi, 100 donaga nisbatan g/%		Tuxum qobiqning o’rtacha og’irligi, 100 donaga nisbatan g/%		Tuxum oqsill indeksi, %		Tuxum sarig’i indeksi, %		Inkubatsiyaga qo’yiladigan tuxumlar % (Dyadichkina L.F. 2011)	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
24	989	73,3	135	13,7	6	4,2	55,1±0,4	5,4±0,008	72,1±0,03	46,3±0,72	68,75					
52	1138	84,3	212	18,6	30	14,4	59,1±0,21	6,0±0,04	88,1±0,23	49,1±0,61	70,82					
67	1196	88,6	291	24,3	54	18,6	62,3±0,87	6,5±0,07	94,6±0,21	46,7±0,47	75,85					

9-jadval

“Agro-Lingt Parranda” MCHJ tovuqlari tuxumlarining morfologik tahlili

Tovuqdar yoshi haftalik	30 kunlik tuxumlar		Shakli o'zgargan tuxumlar	Yupqa po'chog'ili tuxumlar	Tuxum qobiqning o'rtacha og'irligi, 100 donaga nisbatan g/%		Tuxum oqsili indeksi, %	Tuxum sarig'i indeksi, %	Sotiladigan tuxumlar %
	soni	%			soni	%			
24	927	68,7	214	23,1	32	15,2	52,4±0,3	5,1±0,01	69,2±0,02
52	1031	76,4	128	12,4	23	17,9	55,6±0,1	6,1±0,12	84,1±0,13
67	1197	88,6	115	9,6	20	17,1	61,4±0,2	6,4±0,06	91,4±0,23

Tekshirishlar natijalariga ko'ra 67 haftalik yoshdagি tovuqlardan olingan tuxumlar soni 1197 ta bo'lib tuxum mahsulorligi 88,6 foizni tashkil qilib shulardan shakli o'zgargan tuxumlar 9,6 foizini, yupqa po'chog'li tuxumlar 17,1 foizini tashkil qildi. Tuxumlarning o'rtacha og'irligi 100 donaga nisbatan o'rtacha  $61,4 \pm 0,2$  foizni tashkil qildi, tuxum po'chog'ining og'irligi o'rtacha 100 donaga nisbatan  $6,4 \pm 0,6$  foizni tashkil qildi. Tuxum oqsilning indeksi o'rtacha  $91,4 \pm 0,23$  foizni, tuxum sarig'ining indeksi o'rtacha  $45,1 \pm 0,47$  foizni tashkil qildi. Tovuqlardan olingan tuxumlarni sotishga yaroqlilik ko'rsatkichi o'rtacha  $96-98$  foizni tashkil qildi (7-jadval).

Tovuqlar yoshi ulg'aygan sari tuxumdagi oqsil miqdori kamayadi, yog' miqdori esa ortadi. Tovuqlar ratsionga qo'shimcha tarkibida kalsiy, fosfor va boshqa mineral kompleksini tovuqlar ozuqasiga kiritish tovuqlarning morfologik va kimyoviy sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi bu tovuq tanasida mineral almashinuvning yanada jadallahishini ko'rsatadi.

## **TUXUM YO'NALISHIDAGI TOVUQLARDA KALSIY VA FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHLARINING DIAGNOSTIKASI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI**

Tuxum tug'adigan tovuqlar ratsioniga Vitaprem (vitaminlar) 1gr/kg, Vitaprem (minerallar) 1gr/kg, monokalsiyfosfat-12gr/kg, Probiotik (Lactobacterium etc.) 0,1mg/kg miqdorda qo'shib berilishi tovuqlar organizmiga yaxshi ta'sir etib, tovuqlarda klinik va hematologik ko'rsatkichlarini me'yorlar darajasida yaxshilanishi va tovuqlarning tuxumi vaznining nazorat guruhga nisbatan o'rtacha 9,7 gramminga va tuxum berish foizini 18-20 % ga ko'payishini ta'minlaydi [129; 29-b, 130; 17-18-b].

Parrandalarda modda almashinuvini yaxshilash va proteindan yuqori samarali foydalanish maqsadida parrandalar ratsioniga tarkibida biologik faol moddalar bo'lgan premekslarni qo'shish tavsiya etiladi [138; 36-b].

Pat tushishlarni davolashda parrandaga tinchlik berilishi, qo'l bilan hamroq ushlanishi kerak. Oziqlantirish to'liq qiyamatli bo'lishi lozim. Ratsionga qo'shimcha ravishda kalsiy preparatlari, vitaminlar va mikroelementlar qo'shish mahsulorlikni yaxshilaydi. Stresslarni

profilaktika qilish maqsadida asab tizimini tinchlantiruvchi vositalarni (sedkusin, trioksazin) berish, shuningdek, parrandani tez-tez yayratishni samaradorligi yuqori bo‘ladi [118; 26-27-b, 12; 84-89-b].

Tovuqlar uchun tayyorlangan omixta yem tayyor holatida 0,1 % yoki 0,2 % li vitaminli minerali premekslar reksvital, aminovital, chiktonik, tetravit kabilarni qo‘sib berish mumkin. Ularga har doim uzluksiz, yetarli darajada toza ichimlik suvi bilan ta’milnishi kerak. Yilning turli faslida tovuqlarning krossiga, tuxum mahsuldarligiga qarab saqlansa, oziqlantirilsa va o‘z vaqtida veterinariya tadbirlari o’tkazilsa ularning mahsuldarligi ko‘payadi va yaxshi iqtisodiy samaradorlikga erishiladi. Bir dona tuxum A vitaminiga bo‘lgan talabni 13-15 %, D vitaminiga bo‘lgan talabni esa 10-40 % qondiradi [124; 32-b, 86; 485-495-b].

Patologik pat tushishlarni davolashda kásallikning asosiy sababi aniqlanadi va bartaraf etiladi. Parrandaga jigar va buyrak faoliyatini normallashtiradigan preparatlar beriladi. Ratsion vitamin va minerallar bilan boyitiladi. Terida ochilib qolgan joylar bo‘lsa, yoz vaqlarda quyosh vannasi qilinadi, sovuq vaqlarda esa maxsus ultra-binafsha nurlar bilan nurlantiriladi [8; 22-b, 118; 26-27-b].

Olimning ilmiy ishlarda 0,1-0,5 ml miqdorda “Narine” preperatining berilishi sog‘lom parrandalardagi modda almashinuvni jarayonlarga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Qondagi eritrotsitlarning-8,7 % ga, leykositlarning – 9,7 % ga, gemoglabinning – 8,1 % ga, umumiyl oqsilning – 1,2-4,14 % ga, anorganik fosforning 0,6-6,9 % ga, umumiyl kalsiyning – 0,16-8,3 % ga oshishi, tuxumdarlikning 3,6 % ga, tana vaznining 2,3 % ga o‘sishi, shuningdek, 3,8 % ga pasayishi, chiqimning esa 2,1 % ga bartaraf etilishi kuzatilgan [7; 28-30-b, 42; 16-b].

Bir qator olimlarning tajribalarida tovuqlar organizmida vitamin-minerallar almashinuvini stimullash, tuxum mahsuldarligini oshirish, inkubatsiya uchun tuxumlar sifatini oshirish maqsadida ularning ratsioniga adsorbent toksonon preparatidan 0,15 %, probiotik basell-M preparatidan 0,2 % miqdorda 1 kg omuxta yemga aralashtirib berilgan. Ushbu majmuuning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘lib, tuxum mahsuldarligini 3,0-5,7 % ga, jo‘ja ochib chiqishini 2,9-6,6 % ga oshishini ta’milagan [84; 104-b, 110; 125-b].

Adabiyot ma’lumotlariga ko‘ra tovuqlarga vitaminli va mineralli qo‘sishmchalarni ratsionga qo‘sib berish ularda tuxum mahsuldarligini

uning sifatini oshirishga imkoniyat yaratadi va ozuqalar sarfini kamaytiradi. Ularning ratsioniga selen saqlovchi preparatlar, achitqilar, stabillashgan yod preparatlarini qo'shib berishni tavsiya etgan [88; 18-b, 25; 370-372-b].

Olimlarning tavsiyalarga ko'ra mikroelementlardan marganes, rux, temir, kobalt, yod parrandalar organizmida moddalar va energiya almashinuvida katta ahamiyat kasb etib, bo'lib, ratsionga ularning tuzlari qo'shiladi. Mikroelementlarning yetishmasligi oqibatida yosh jo'jalar o'sishdan qoladi, mahsuldarlik pasayadi, suyaklanish jarayoni buziladi. Oba tovuqlarda par va patlar sinuvchan tez tushadigan bo'lib qoladi, suyaklaning sifati va miqdori kamayadi. Parrandalarni to'la qiymatli qidiruvchilirish ularda biologik jarayonlar me'yorlar darajasida bo'ladi. Biologik faol moddalar parrandalar organizmining rezistentlikni oshirib ularmi tashqi muhit ta'sirotlariga chidamliligini oshirib, mahsuldarlikni yurish imkonini beradi [31; 26-39-b, 99; 13-b, 128; 122-b].

Parrandalar ratsioniga qo'shiladigan baliq uni tarkibida 52 - 59 foizgacha protein va shuningdek, lizin, metionin, A, B2, B3, B12 vitaminlari, xolin, kalsiy, temir, magniy, fosfor, yod kabi moddalar bo'lib, uzoq muddat saqlanganda ozuqani oksidlanishi natijasida sifatini bezilishi va ozuqaviy qiymati pasayishi mumkin. Baliq unidan parrandalar ratsioniga 3- 7 % gacha qo'shish tavsiya etiladi. Mualliflar tovuqlarda gipovitaminozlarni va mikroelementozlarni oldini olishda vitamin-mineralli premiks "Multivit" ni tavsiya etgan [37; 22-24-b, 6; 27-30-b].

Parrandalarning ratsioniga 3-7 foiz hisobida go'sht-suyak uni qo'shilishi mumkin. Go'sht uni - go'sht va ichki organlarning iste'molga bo'lgan qismidan tayyorlanib, tarkibida 64-74 % gacha protein maydalanadi. Parlardan tayyorlangan un, par va patlarni maxsus qozonlarda pilafolizlash yo'li bilan olinib, tarkibida oltingugurt saqlovchi minokislotalar ko'p bo'ladi. Go'sht-par uni o'lgan tovuqlarni butunlaysa maydalash yo'li bilan tayyorlanib, tarkibida 63 % gacha protein maydalanadi. Ratsionga 3-7 % gacha qo'shiladi [64; 25-27-b, 31; 26-39-b].

Olimlarning takidlashicha broyler jo'jalarga Multivit+mineral preparatini berish. Tajriba guruhidagi jo'jalarda nazorat guruhga o'shotan qondagi eritrotsitlar sonini o'rtacha 27 % ga, gemoglobin hlorini o'rtacha 6 % ga, lizotsim aktivligining o'rtacha 31 % ga, hukieritsid aktivlikni 14 % ga, vitamin A konsentratsiyasini 16 % ga

oshishi kuzatiladi. Tokoferol miqdori nazorat guruhidagi broyler jo‘jalar qonida o‘rtacha  $4,37\pm1,17$  mkg/ml ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba guruhida o‘rtacha  $4,65\pm0,28$  mkg/ml ni tashkil etgan. Jo‘jalarning saqlanuvchanligini 5 % ga yuqori bo‘lishi aniqlangan [57; 228-b, 151; 19-24-b].

Lemann Braun - Klassik krosslarining tuxum mahsuldorligi bir yilda 300-320 ta ni tashkil etadi. Bunday yuqori mahsuldorlikga erishish uchun tovuqlarni yuqori almashinuv energiyaga ega bo‘lgan boyitilgan omixta yem bilan boqish tavsiya etiladi. Ozuqadagi energiya manbayi donli ozuqalardan: makka doni, bug‘doy, arpa, suli, soya shroti, kungaboqar shroti, mosh xizmat qiladi. Omixta yem tarkibiga qo‘shiladigan fermentlari uning yengil hazm bo‘lishini taminlaydi [7; 28-30-b, 127; 94-96-b].

Tuxum tug‘adigan tovuqlar organizmida vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzilishlari natijasida ichki organ va to‘qimalarda qayta tiklanmaydigan chuqur patomorfologik o‘zgarishlar kelib chiqadi, oqibatda organizmning funksional holati, uning mahsuldorligi va reproduktiv qobiliyati to‘la tiklanmaydi. Shuning uchun organizmda vitamin va mineral moddalar almashinuvi buzilishlarini uning boshlang‘ich bosqichida ya’ni organizmda kasallikning klinik belgilari paydo bo‘lmasdan aniqlash va uni oldini olish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish veterinariya amaliyotidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [8; 28-b, 70; 192-b].

Parrandalarning D vitaminiga bo‘lgan kunlik chtiyoji (1 boshga mkg hisobida) 10 kunlikkacha bo‘lgan jo‘jalar uchun – 0,05 – 0,1; tovuqlar uchun – 2 – 4; kurkalar uchun – 3 - 5; g‘ozlar uchun – 5 - 10. Parrandalar ochiqda saqlanganda ularning D vitaminiga bo‘lgan ehtiyojlari uning provitaminlaridan quyosh nurlari ta’sirida sintezlanishi hisobiga qondiriladi. Tovuqlarning D vitaminiga bo‘lgan chtiyojlari qafaslarda saqlanganda yanada ortadi. Parrandalar ratsioniga maydalangan beda uni, vitaminli preparatlardan qo‘sish va sun’iy ultrabinafsha nurlar beradigan lampalardan foydalanish lozim bo‘ladi [60; 520-b]. Profilaktik maqsadda baliq yog‘i oziqalarga aralashtirilgan holda tovuqlarga 1 boshga 1 g, jo‘jalarga 100 g oziqaga 0,5 - 1 g, ona tovuqlar uchun bir tonna oziqaga D2 vitamini 30-45 g, D3 vitamini 1 – 1,5 g aralashtirilib beriladi [105; 8-11-b].

Olimlarning tajribalarida tovuqlar va jo‘jalari biologik faol modda “Vigaton” (1litr suvgaga 1ml dozada), qo‘shib berilganda organizmda kalsiy

va fosfor almashinuvining yaxshilanishi hisobiga, qondagi A, E, D va C vitaminlari konsentratsiyasining nazorat guruhiga nisbatan ko'payishi, jo'jalarining kunlik o'sishi va tana vazni ortishining yuqori bo'lishini ominalaydi. «Nutrilaita vitamin C plyus» preparati tovuqlarga berilganda tuxum berishning 0,21-2,08 % ga, saqlanuvchanligini 2-4 % ga, qondagi nitrotsitlar soni, gemoglobin miqdori, immunoglobulinlarni nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo'lishligini tajribalarda aniqlashgan, tarkibida yod, selen va temir saqlovchi preparat qo'llanilganda tuxum mahsulorligining 17,24 % ga oshganligini aniqlaganlar [98; 149-b, 54; 128-b, 19; 157-b]. So'ngi vaqtida parrandachilikda mahsulotni ko'paytirishda yuqori mahsuldor zotlardan foydalanilmoqda, ularning genetik potentsiali yaxshi sharoitlarda o'zini namoyon qiladi, parvarish qilish va oziqlantirishga ta'sirchan bo'ladi. Bu parrandalar organizmida metabolik jarayonlarni faollashtirishga imkon beradigan biologik faol moddalar bilan ta'minlanishga bog'liq bo'ladi. [7; 28-30-b, 95; 86-88-b].

Olimlarning xulosalarida 11 dan 24 kungacha bo'lgan broyler tovuqlarining hazm bo'ladigan kaltsiy (Ca) va hazm bo'ladigan fosfor (P) ehtiyojlarini aniqlash uchun tajriba o'tkazildi. 1,80, 2,35, 2,90, 3,45, 4,00 va 4,55 g/kg ni o'z ichiga olgan makkajo'xori, soya donidan tayyorlangan omqidan berilganda ichakda hazm bo'ladigan kalsiy - 3,5-4,5 va 5,5 g / kg foyorga oziqlanganligi aniqlangan. 11 dan 24 kungacha bo'lgan broylerlar. Har bir eksperimental guruh tasodifiy ravishda oltita katakka ajratilgan (har bir katakga 8 ta tovuq). Tana vazni va ozuqa miqdori tajriba toshida va oxirida qayd etilgan va ozuqa konversiya nisbati hisoblab chiqilgan. 24 kunda, hazmlanadigan kalsiy va fosforni va mos ravishda organizmda kalsiy va fosforning saqlanishini aniqlash, hazm bo'lishi va tana go'shtini yig'ish uchun tovuqlar so'yiladi. Titaniyum dioksidi (5 g/kg) barcha guruhlarga an'anaviy ravishda kiritilgan ichakning hazm bo'lishini aniq o'chash uchun hazm bo'lmaydigan ko'rsatkich. Eksperimental davoming so'nggi 4 kunida kalsiy va fosforni to'liq ushlab turishini o'chash uchun umumiylajratma chiqishi o'chandi [139; 118-128-b, 144; 166; 877-b, 148; 293-303-b]. Parrandalar organizmida kalsiy balansining bezulishi o'z navbatida tomirlar endoteliysiga tasir qilib ularga kirib saqlanuvchi metafizar invaziya va qon tomirlaridan bakteriyalar migratsiyasini kuchayishiga sabab bo'ladi [148; 293-303-b].

Mualliflarning ta'kidlashicha, kalsiy miqdorining yetishmovchiligi organizmning D vitaminiga bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi. U

yetishmaganida ozuqadagi kalsiy ichaklarda ushlanib qoladi va organizm tomonidan o'zlashtirilmasdan axlat bilan tashqariga chiqib ketadi [98; 149-b].

Parrandalar organizmida fosfor muhim ahamiyatga ega bo'lib u nuklein kislotalar tarkibiga kiradi. Fosfor organizmda fosfoproteidlar, fosfolipidlar, nuklein kislotalar va boshqa organik kislotalar hamda anorganik birikmalar tarkibida bo'lib, moddalar almashinushi va energiya almashinuvini tartiblashtirishda ishtirok etadi. U parranda go'shtining sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi yagona element hisoblanadi [54; 128-b, 19; 157-b].

«Ross-308» krossiga mansub broyler jo'jalarni boshlang'ich yem bilan parvarishlash bosqichida, harakat faolligi past bo'lgan sharoitdagi katakda saqlash ularda funksional faollikni va organizmning immunologik reaktivligini pasayishiga olib kelishi kuzatilgan [139; 118-128-b.].

Tajribaning qat'iy ta'siri kalsiy va fosforning hazm konsentratsiyasi va ularning o'zaro ta'siri organildi. Agar o'zaro ta'sir yoki asosiy ta'sir sezilarli bo'lsa ( $P < 0,05$ ), ikkinchi darajali javob yuzasi modeli uchun parametr bahosi SAS ning umumiy chiziqli modeli protsedurasi yordamida aniqlandi [150; 101-439-b, 145; 43-46-b, 143; 39-45-b].

Broyler yetishtiruvchilarning vazn ortishi fosfor konsentratsiyasi 3,5 g/kg va kalsiy kontsentratsiyasi 2,35 dan 4,00 g/kg gacha bo'lganida yaxshilandi. 3,5 g / kg fosfor konsentratsiyasida maksimal vazn ortishi uchun zarur bo'lgan kalsiy 3,05 g / kg deb aniqlandi, bu kalsiyga fosfor nisbati 0,87 ga to'g'ri keladi. 3,5 g / kg fosforda suyak kulini maksimal darajada oshirgan kalsiy kontsentratsiyasi 3,69 g / kg ni tashkil etdi, bu kalsiyga fosfor nisbati 1,05 ga to'g'ri keladi. Suyak kulini maksimal darajada oshirish vazn ortishini maksimal darajada oshirishdan ko'ra ko'proq kalsiyini talab qiladi. Maksimal vazn ortishi (3,05 g/kg yoki 6,11 g/kg jami kalsiy) va suyak kuli tarkibida kalsiy (3,69 g/kg yoki 7,28 g/kg jami) fosfor (3,5 g/kg fosfor) talablari pastroq. Broyler yetishtiruvchilar uchun tavsiya etilgan kalsiyga qaraganda (8,70 g/kg jami kalsiy 4,03 g/kg kalsiy;) tavsiyalar asosida tuzilgan namunalarda kalsiyning ortiqcha bo'lishini ko'rsatadi [150; 101-439-b, 145; 43-46-b, 143; 39-45-b].

Adabiyot ma'lumotlarni tahlil qilish bilan shunday xulosaga keldikki, dunyo olimlari tuxum yo'nalishdagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinushi buzilishlarining sabablari, kechish xususiyatlari, klinik belgilari hamda oldini olish usullari to'g'risida turlicha xulosa qilishgan.

Parrandachilik fermer xo'jaliklari sharoitida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va tovuqlar zotini yaxshilash maqsadida chetdan keltiriladigan zotli tuxum tug'adigan tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining etiologiyasi, patogenezi va kasalliklarning diagnostikasi to'liq o'rganilmagan va oldini olishning samarali usullari ishlab chiqilmagan.

Tuxum yo'nalishdagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari natijasida nobut bo'lgan parrandalar organizmida patomorfologik o'zgarishlar, son suyaklardagi makroskopik va histologik o'zgarishlar yetarlicha o'rganilmaganligi adabiyotlarni tahlili natijasida amaylandi.

## **TOVUQLARDA KALSIY VA FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHLARINI OLDINI OLISH**

Tovuqlarning tuxumga kirish davri 24 haftaligida va tuxum berishning 52 va 67 hafataliklarda dispanser tekshirishlar o'tkazish ular organizmida kalsiy va fosfor moddalari almashinuvi darajasi o'rganish va tovuqlar ratsionning to'yimlilik darajasi kartogrammasini o'rganish va tahlil qilish asosida tovuqlar organizmida gemoglobin, glyukoza, umumiy asid, umumi kalsiy va anorganik fosfor va vitamin (D<sub>3</sub> va E)lar yetishmasligi aniqlanadi.

Kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari tovuqlarda tuxum berishning boshlanishi va tuxum tug'adigan davrining 24, 52 va 67 haftaligida subklinik tarzida kechib, tuxum mahsuldorligini kamayishi, yopiq po'choqli tuxumlar tug'ilishi va xo'jaliklarga iqtisodiy zarar yetkazishi bilan xarakterlandi.

Tuxum yo'nalishdagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarni oldini olishda etiopatogenetik tamoyildan kelib chiqib, ular organizmida kalsiy va fosfor almashinuvlarini ma'romlashturuvchi va stimullovchi, gemopoezni yaxshilovchi, organizm rezistentligini biruvchi va mineral almashinuvini yaxshilovchi xususiyatga ega bo'lgan preparatlar va mahalliy vositallarni sinab ko'rish maqsad qilindi.

Shu maqsadda "Xitozangidroksoapatit", maydalangan tuxum po'chog'i, NOVAMIX premeksi va Introvit-A+BC preparatlarini qo'llab, glomer tovuqlarda klinik, qonning biokimyoiy ko'rsatkichlari, tuxum mahsuldorligi, tuxum va son suyakdagagi patomorfologik o'zgarishlar va

tovuqlarning rivojlanishi kabi ko'rsatkichlarga va kalsiy fosfor almashinuvi holatiga ta'siri o'r ganildi.

"Xitozangidroksipatit" tarkibida xitozanning ulushi 20% qismiga gidroksiapatitning 80% qismidan iborat ( $Xz/Ga$  20:80) kamponent bo'lib, unda kalsiyning fosforga ( $Ca/P$ ) nisbati 1,65 mol ni tashkil etadi. Gidroksiapatitning (GA) empirik formulasi -  $Ca_{10}(PO_4)_6(OH)_2$  bo'lib tarkibda kalsiy (Ca) ning massa ulushi 39,84 foizni va fosfor (P) massa ulushi 18,5 foizni tashkil qiladi. Bu preparat mahaliy arzon bo'lib hazimlanishi oson preparat sanaladi.

Uzunligi 3-5 mm dan maydalangan tuxum po'chog'i tarkibda mineral moddalar (95%) va organik moddalardan (5%) iborat. Minerallar kalsiy karbonat ( $CaCO_3$  -98,4%), magniy karbonat ( $MgCO_3$  -0,84%) va trikalsiy fosfat ( $Ca_3(PO_4)_2$  -0,7%) ni tashkil qiladi. Tuxum po'chog'i tarkibida Ca va P ga boyligini inobatga olib ratsiondag'i kalsiy va 'fosfor o'mini to'ldirish uchun qo'shildi.

Tovuqlar organizmida kalsiy va fosfor yetishmovchiligini oldini olish maqsadida NOVAMIX pereparati tarkibida vitamin va minerallarga boy bo'lib, mahaliy preparat hisoblanadi. Tarkibi quydagi jadvalda keltirilgan.

**10-jadval**

VITAMINLAR		MINERALLAR	
Nomi	Miqdori	Nomi	Miqdori
Vitamin A	XB: 800000	Selen	mg: 8
Vitamin D <sub>3</sub>	XB: 220000	Temir	mg: 1600
Vitamin E	XB: 1200	Xelin	mg: 8000
Vitamin C	XB: 1000	Fosfor	mg: 300000
Vitamin B <sub>1</sub>	XB: 80	Magniy	mg: 4000
Vitamin B <sub>2</sub>	XB: 480	Kalsiy	mg: 350000
Vitamin B <sub>3</sub>	XB: 1100	Mis	mg: 600
Nikotin kislotosi	XB: 6400	Rux	mg: 3200
Vitamin B <sub>6</sub>	XB: 200	Kobalt	mg: 20
Vitamin B <sub>12</sub>	XB: 0,6	Yod	mg: 80
Vitamin K <sub>3</sub>	XB: 120	Bentonit uni (to'ldiruvchi)	1 kg gacha

Tuxum tug'adigan tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini oldini olishda preparatlar samaradorligini aniqlash

maqondida Samarqand viloyati Pasdarg'om tumanidagi "Darg'om parranda Fayz" MCHJdagi va Qashqadaryo viloyati Kasbi tumanidagi "Apro-Lingt parranda" MCHJdagi tovuqlardan etalon "o'xshash jahitliklur" tamoyili asosida ajratilib, har birida 45 boshdan tovuqlar bo'lgan tajriba guruhlar tuzildi. 1-2-3-guruuhlar tajriba va 4- guruuh nazorat sifatida belgilandi.

Birinchi tajriba guruhidagi tovuqlar ratsioniga qo'shimcha mahalliy arzon "Xitozangidroksiapatin" ( $\frac{1}{4}$ ) (Xz/Ga) dan 10 mg/kg va 4000 litr suviga 1000 ml dan "Intrirovit-A+BC" preparatidan qo'shib berildi.

Ikkinci tajriba guruhiga xo'jalik ratsioniga kattaligi 2-3 mm dan qilib maydalangan tuxum po'chog'idan 1 tonna yemga 1 kg maydalangan tuxum po'chog'i va 4000 litr suviga 1000 ml dan "Intrirovit-A+BC" preparatidan qo'shib berildi. Uchinchi tajriba guruhidagi tovuqlarga xo'jalik ratsionga qo'shimcha NOVAMIX preparatidan 100 kg yemga 1 kg hisobida qo'shib berildi. To'rtinchi nazorat guruhidagi tovuqlar faqat xo'jalik ratsionida oziqlantirildi. Tajribalar 40 kun davomida olib borildi.

Tajribalar davomida tovuqlar har 20 kunda bir marta klinik, hematologik va tuxumlarni organoleptik tekshirishlardan o'tkazib berildi.

Klinik tekshirishlar orqali umumiy holati, semizlik darajasi, tashqi fisiotrotlarga javob reaksiyasi aniqlandi. Umumiy qabul qilingan klinik tekshirish usullari bilan tovuqlarda shilliq pardalar, toj va sirg'alarning rangi, gipodinamiya, tana harorati, patlarni holati, alopetsiya, malisulidorlik, teri va teri qoplamasi, tuxum po'chog'ining holati va shakli aniqlandi.

Tajribalarning boshida tajriba va nazorat guruhlaridagi tovuqlarda klinik-fiziologik ko'rsatkichlar umumiy holsizlanish, shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), tananing bo'yin, kloaka atrofida patlar to'kilishi (alopetsiya), teri qoplamasi va oyoqlar muguz holati yaltiroqligining pasayishi kabi kalsiy - fosfor almashinuvni buzilishlariga xos klinik belgilar nomoyon bo'lib, tajribalarning oxirida birinchi, ikkinchi va uchinchi tajriba guruhidagi tovuqlarda kuzatilmadi ammo nazorat guruhidagi tovuqlarda bu belgilar ko'payishi bilan xarakterlandi.

Klinik ko'rsatkichlar "Darg'om Parranda Fayz" MCHJdagi birinchi tajriba guruhidagi tovuqlarda o'rtacha tana vazni  $3578 \pm 10$  gr,

tana harorati  $41,4 \pm 0,1$   $^{\circ}\text{C}$ , tojlar va sirg'alar rangining oqarishi 35,5 foizda, patlarning hurpayishi 34,3 foizda, alopetsiya 18,2 foiz tovuqlarda kuzatildi va tajribalarning oxirida mos ravishda  $3689 \pm 11$ ;  $41,8 \pm 0,2$   $^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lgan bo'lsa, toj va sirg'alarning oqarishi, patlarning hurpayishi va alopetsiya holatlari kuzatilmadi.

Ikkinci tajriba guruhidagi tovuqlarda tajribalarning boshida tana vazni  $3581 \pm 11$  gr, tana harorati  $41,2 \pm 0,1$   $^{\circ}\text{C}$ , toj va sirg'alarning oqarishi 37,7 foizda, patlarning hurpayishi 28,8 foizda, alopetsiya 15,5 foiz tovuqlarda kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar tajribalarning oxiriga kelib, shunga mos ravishda  $3687 \pm 10$ ;  $41,6 \pm 0,5$   $^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lgan bo'lsa, toj va sirg'alarning oqarishi 15,5 foiz, patlarning hurpayishi 6,67 foiz va alopetsiya 2,22 foizga kamayganligi qayd etildi.

Uchinchi tajriba guruhidagi tovuqlarda tajribalarning boshida tana vazni  $3608 \pm 12$  gr, tana harorati  $41,6 \pm 0,2$   $^{\circ}\text{C}$ , toj va sirg'alarning oqarishi 33,3 foizda, patlarning hurpayishi 31,1 foizda, alopetsiya 13,3 foiz tovuqlarda kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar tajribalarning oxiriga kelib, shunga mos ravishda  $3677 \pm 14$ ;  $41,8 \pm 0,3$   $^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lgan bo'lsa, toj va sirg'alarning oqarishi 8,9 foiz, patlarning hurpayishi 4,4 foiz va alopetsiya holatlari kuzatilmadi. Nazorat guruhidagi tovuqlarda tajribalar davomida tana vazni  $3610 \pm 10$  gr, tana harorati  $41,2 \pm 0,2$   $^{\circ}\text{C}$ , toj va sirg'alarning oqarishi 31,1 foizda, patlarning hurpayishi 26,7 foizda, alopetsiya 13,3 foiz tovuqlarda kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar tajribalarning oxiriga kelib, ya'ni 40 kundan keyin shunga mos ravishda  $3506 \pm 11$ ;  $41,1 \pm 0,5$   $^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lgan bo'lsa, toj va sirg'alarning oqarishi 42,2 foiz, patlarning hurpayishi 37,8 foiz va alopetsiya 24,4 foizga ko'payganligi qayd etildi.

Klinik belgililar "Agro Lingt Parranda" MCHJdag'i birinch'i guruhidagi tovuqlarda o'rtacha tana vazni  $1610 \pm 14$  gr, tana harorati  $41,2 \pm 0,1$   $^{\circ}\text{C}$ , tojlar va sirg'alar rangining oqarishi 31,1 foizida, patlarning hurpayishi 28,9 foizda, alopetsiya 13,3 foiz tovuqlarda kuzatilgan, tajribalarning oxirga kelib mos ravishda  $1714 \pm 10$ ;  $41,2 \pm 0,5$   $^{\circ}\text{C}$  ga teng bo'lgan bo'lsa, toj va sirg'alarning oqarishi, patlarning hurpayishi va alopetsiya holatlari kuzatilmadi.

Ikkinci tajriba guruhidagi tovuqlarda tajribalarning boshida tana vazni  $1625 \pm 13$  gr, tana harorati  $41,8 \pm 0,2$   $^{\circ}\text{C}$ , toj va sirg'alarning oqarishi 33,3 foizda, patlarning hurpayishi 24,4 foizda, alopetsiya 13,3 foiz tovuqlarda kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkichlar tajribalarning oxiriga

kelib, shunga mos ravishda  $1662 \pm 11$ ;  $41,6 \pm 0,5$  °C ga teng bo‘lgan bo‘lin, toj va sirg‘alarning oqarishi 13,3 foiz, patlarning hurpayishi 6,67 foiz va alopetsiya 2,22 foizga kamayganligi qayd etildi.

Uchinchi tajriba guruhidagi tovuqlarda tajribalarning boshida tana vazni  $1600 \pm 10$  gr, tana harorati  $41,6 \pm 0,2$  °C, toj va sirg‘alarning oqarishi 11,9 foizda, patlarning hurpayishi 26,7 foizda, alopetsiya 13,3 foiz tovuqlarda kuzatilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlar tajribalarning oxiriga kelib, shunga mos ravishda  $1672 \pm 13$ ;  $41,2 \pm 0,1$  °C ga teng bo‘lgan bo‘lin, toj va sirg‘alarning oqarishi 4,4 foiz, patlarning hurpayishi 4,4 foiz va alopetsiya holatlari kuzatilmadi. Nazorat guruhida tana vazni  $1612 \pm 10$  gr, tana harorati  $41,6 \pm 0,1$  °C, tojlar va sirg‘alar rangining oqarishi 28,9 foizda, patlarning hurpayishi 24,4 foizda, alopetsiya 15,5 foiz tovuqlarda kuzatilgan, bu ko‘rsatkichlar tajribalarning oxiriga kelib, ya’ni 40 kundan keyin shunga mos ravishda  $1575 \pm 12$  gr  $41,8 \pm 0,2$  °C ga teng bo‘lgan bo‘lsa, toj va sirg‘alarning oqarishi 40,1 foiz, patlarning hurpayishi 33,3 foiz va alopetsiya 22,2 foizga ko‘payganligi qayd etildi.

Tajriba guruhidagi tovuqlarning nazorat guruhidagi tovuqlarga qaraganda ancha harakatchanligi va tashqi ta’sirotlarga yaxshi javob qaytarishi qayd etildi.

Tajribalar davomida birinchi tajriba guruhidagi tovuqlardan olingan qon namunalarida (1-xo‘jalik)da tajribalarning oxiriga kelib, gemoglobin miqdorining o‘rtacha 21,1 g/l, glyukozani 1,38 mmol/l, umumiy oqsil 9,4 g/l, umumiy kalsiyini 2,06 mmol/l, anorganik fosforni 0,73 mmol/l, ikkinchi tajriba guruhida gemoglobin miqdorining o‘rtacha 1,2 g/l, glyukozani 0,72 mmol/l, umumiy oqsil 3,6 g/l, umumiy kalsiyini 1,5 mmol/l, anorganik fosforni 0,28 mmol/l ga, uchinchi tajriba guruhida gemoglobin miqdorining o‘rtacha 6,2 g/l, glyukozani 1,21 mmol/l, umumiy oqsil 6,6 g/l, umumiy kalsiyini 1,16 mmol/l, anorganik fosforni 0,43 mmol/l ga ko‘payishi xarakterli bo‘ldi. Nazorat guruhidagi tovuqlarda olingan qonning ko‘rsatkichlari tekshirishlarning oxiriga kelib gemoglobin miqdorining o‘rtacha 10,6 g/l, glyukozani 0,28 mmol/l, umumiy oqsilni 2,3 g/l, umumiy kalsiyini 0,37 mmol/l va anorganik fosforni 0,26 mmol/l ga kamayishi bilan xarakterli bo‘ldi (12-javval ilovada).

## 11-jadval

Darg'om parranda fayz xo'jaligidagi tajribadagi tovuqlarning klinik ko'rsatkichlari (n=45)

Tajriba guruhlari	Tekshirishlar vaqtি	Tana vazni (g)	Tana harorati C°	Toj va sirg'alar rangining oqarishi		Patlarning hurpayishi		Alopetsiya	
				bosh	%	bosh	%	bosh	%
1-tajriba	Tekshirishlar boshida	3578±10	41,4±0,2	16	35,5	15	34,3	8	18,2
	20-kunda	3622±12	41,6±0,4	9	20	6	13,3	2	4,44
	40-kunda	3689±11	41,8±0,65	kuzatilmadi		kuzatilmadi		kuzatilmadi	
2-tajriba	Tekshirishlar boshida	3581±11	41,2±0,1	17	37,7	13	28,8	7	15,5
	20-kunda	3631±13	41,4±0,2	11	24,4	8	17,7	3	6,67
	40-kunda	3687±10	41,6±0,5	7	15,5	3	6,67	1	2,22
3-tajriba	Tekshirishlar boshida	3608±12	41,6±0,2	15	33,3	14	31,1	6	13,3
	20-kunda	3674±12	40,6±0,2	9	20	8	17,8	2	4,44
	40-kunda	3677±14	41,8±0,3	4	8,9	2	4,4	kuzatilmadi	
4-nazorat	Tekshirishlar boshida	3610±10	41,2±0,2	14	31,1	12	26,7	6	13,3
	20-kunda	3518±13	41,8±0,1	16	35,5	14	31,1	9	20
	40-kunda	3506±11	41,1±0,5	19	42,2	17	37,8	11	24,4


68

## 12-jadval

Agro-Lingt-parranda xo'jaligidagi tajribadagi tovuqlarning klinik ko'rsatkichlari (n=45)

Tajriba guruhlari	Tekshirishlar vaqtি	Tana vazni (g)	Tana harorati C°	Toj va sirg'alar rangining oqarishi		Patlarning hurpayishi		Alopetsiya	
				bosh	%	bosh	%	bosh	%
1-tajriba	Tekshirishlar boshida	1610±14	41,2±0,1	14	31,1	13	28,9	6	13,3
	20-kunda	1667±12	41,4±0,4	8	17,8	5	11,1	2	4,44
	40-kunda	1734±10	41,2±0,5	kuzatilmadi		kuzatilmadi		kuzatilmadi	
2-tajriba	Tekshirishlar boshida	1625±13	41,8±0,2	15	33,3	11	24,4	6	13,3
	20-kunda	1652±11	41,4±0,3	9	20	6	13,3	4	8,89
	40-kunda	1662±11	41,6±0,5	6	13,3	3	6,67	1	2,22
3-tajriba guruhı	Tekshirishlar boshida	1600±10	41,6±0,2	13	28,9	12	26,7	6	13,3
	20-kunda	1656±12	41,2±0,3	8	17,8	7	15,5	2	4,44
	40-kunda	1672±13	41,2±0,1	2	4,4	2	4,4	kuzatilmadi	
4-nazorat	Tekshirishlar boshida	1612±10	41,6±0,1	13	28,9	11	24,4	7	15,5
	20-kunda	1586±11	41,8±0,2	16	35,5	14	31,1	9	20
	40-kunda	1575±12	41,8±0,2	18	40,1	15	33,3	10	22,2

69




### **“Darg‘om Parranda Fayz” MCHJ dagi tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarida qonning biokimyoviy o‘zgarishlari**

Birinchi tajriba guruhidagi tovuqlardan olingan qon (2-xo‘jalik)da tajribalarning oxiriga kelib gemoglobin miqdorining o‘rtacha 25,4 g/l, glyukozani 1,46 mmol/l, umumiyoqsilni 7 g/l, umumiy kalsiyini 2,21 mmol/l, anorganik fosforni 0,81 mmol/l, ikkinchi tajriba guruhida gemoglobin miqdorining o‘rtacha 5,2 g/l, glyukozani 0,76 mmol/l, umumiyoqsilni 6 g/l, umumiy kalsiyini 1,56 mmol/l, anorganik fosforni 0,4 mmol/l ga, uchinchi tajriba guruhida gemoglobin miqdorining o‘rtacha 15,8 g/l, glyukozani 1,12 mmol/l, umumiyoqsilni 8,8 g/l, umumiy kalsiyini 1,54 mmol/l; anorganik fosforni 0,56 mmol/l ga ko‘payishi xarakterli bo‘ldi. Nazorat guruhdagi tovuqlardan olingan qonning ko‘rsatkichlari tekshirishlarning oxirida gemoglobin miqdorining o‘rtacha 5,6 g/l, glyukozani 0,28 mmol/l, umumiyoqsil 0,2 g/l, umumiy kalsiyini 0,57 mmol/l va anorganik fosforni 0,22 mmol/l ga kamayishi bilan xarakterli bo‘ldi.

Tovuqlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini 40 kun davomida guruhli profilaktika qilish tajribalarini o‘tkazish natijasiga ko‘ra, birinchi tajriba guruhidagi tovuqlar yemiga qo‘sishmcha ravishda

idroksiapatit ( $Xz/Ga$ ) ning 20:80 nisbatli aralashmasidan 10 ml/kg berish ularda klinik, gematologik ko'rsatkichlar va tuxum mahsulorligini yaxshilanib borishini ta'minlaydi.

Organoleptik tekshirishlar o'tkazish orqali tuxum mahsulorligi, tajribalarning og'irligi, tuxumdagagi o'zgarishlar, tuxum po'chog'inining qalin yupqaligi, tuxum po'chog'inining og'irligi, nasli xo'jaliklarda olingan tukumlarni inkubatorga saralash foizlari aniqlandi.



